

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**D. Abdullaeva, R. Yorqulov,  
N. Atabaeva**

**OILA PSIXOLOGIYASI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
‘omonidan (5110900) psixologlar, o‘qituvchilar hamda pedagogika  
va psixologiya ta‘lim yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma sifatida  
nashrga tavsiya etilgan*

Toshkent– 2015

UO‘K: 159.9(075)

88.4

O-37

**D. Abdullaeva**

Oila psixologiyasi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / D. Abdullaeva,  
R. Yorqulov, N. Atabaeva – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015. -256b.

KBK-288.4ya73

Ushbu o‘quv qo‘llanma asosan “Oila psixologiyasi” fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini o‘zida mujassamlashtirgan. O‘quv qo‘llanmada ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini o‘qitishning ta’lim texnologiyalari aks ettirilgan. Shu bilan birga o‘qitish tizimiga pedagogik va innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilish samaradorligini oshirish hamda o‘quv jarayonini to‘g‘ri va oqilona tashkil qilish usullari yoritilgan.

Ushbu qo‘llanma psixologlar, o‘qituvchilar hamda pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi (5110900) talabalariga mo‘ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**S.M. To‘ychiyeva** – TVXTXMOQTI, psixologiya  
fanlari nomzodi, dotsent

**F.N. Alimova** – Nizomiy nomidagi TDPU “Amaliy  
psixologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi

ISBN - 978-9943-993-20-4

© “Tafakkur Bo‘stoni”, 2015

© D. Abdullaeva, 2015

© Ilm - Ziyo nashriyot uyi

## Kirish

Hozirgi kundagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlariga, balki madaniy, ijtimoiy-gumanitar bilimlar ta'lim sohasiga ham zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da "...o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" ta'kidlanib, uzluksiz ta'lim sifatini oshirish va takomillashtirishning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilangan edi.

Shu ma'noda mustaqil O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilm-fani, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim-tarbiya tizimini, shuningdek, milliy pedagogika va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy va metodik asoslarini yaratish hamda amaliyotga tatbiq etish zaruriyati milliy ta'lim tizimini isloh qilish, uning salohiyatini jahon miqyosiga olib chiqish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi milliy va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotining muvaffaqiyatlarini belgilab beruvchi bu tub vazifalarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Bunda avtoritar pedagogikadan voz kechib, "hamkorlik pedagogikasi" texnologiyasini qabul qilishimiz kerak bo'ladi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ta'lim va tarbiyaning bosh maqsadi va mazmuni tubdan yangilandi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Binobarin, pedagogik texnologiyalar raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari hamda pedagog-o'qituvchiga qo'yiladigan zamon talablari, pedagog o'qituvchining kasbiy

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.* –T.: "Sharq", 1997, 3-bet

mahorati, talabalarning ongi, bilimi, dunyoqarashini o‘stirish, faolliklarini oshirish orqali ta’lim samaradorligiga erishish bilan bog‘liq masalalar majmuyini ifodalaydi. Bir-biriga bog‘liq bo‘lgan talablarning majmui pedagog-o‘qituvchining umumlashtirilgan modelini va unga asosan, quyidagi asosiy talablarni ifodalaydi:

- ta’lim berish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Demak, pedagog-o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga bo‘lgan yangicha qarashlarni shakllantirish uchun quyidagi xislatlarga ega bo‘lishi kerak:

- zamonaviy ilmiy, madaniy va texnologik taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi;

- kompyuterli ta’lim va o‘qitishning boshqa texnik vositalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishi;

- internet tarmog‘i to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi va undagi axborot texnologiyasi mazmunini teran tahlil qila bilishi;

- umuminsoniy hamda milliy madaniyat va qadriyatlar, milliy g‘oya va milliy mafkura hamda iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar mohiyatini to‘liq tushunib yetishi;

- pedagogik texnologiyalar mohiyati va tamoyillari, uning an’anaviy o‘qitish jarayonidagi afzalliklarini bilishi, shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligini ta’minlash uchun pedagogik innovatsiyalarni qo‘llay olishi;

- talabalarga o‘z fani bo‘yicha ta’lim berishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olishi, o‘quv jarayonini faollashtirish hamda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va talabalarni mustaqil fikrlashga va o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rgatishi;

- o‘z fanining mohir ustasi va fidoyisi bo‘lishiga erishishi;

- talabalarning barkamol inson bo‘lishi uchun ularga o‘zining izlanishlari, ijodkorligi hamda betinim mehnatlari orqali ta’lim-tarbiya berishi va hokazo.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar shunday xulosalarga kelishimizga imkon beradi:

– birinchidan, har qanday kasbda faoliyat samaradorligi va muvaffaqiyati kasb sohiblarining tayyorgarligi, mahorati, malakasi, oʻz omilkorligini takomillashtirish ustida nechogʻli qunt va izchillik bilan ishlashiga bogʻliq;

– ikkinchidan, har tomonlama yetuk pedagog-oʻqituvchi boʻlish uchun boshqalarning aql-idrokini oʻstirish, maʼrifat ziyosidan bahramand qilish, komil inson qilib yetishtirish uchun, eng avvalo, pedagog-tarbiyachining oʻzi oʻz bilimdonligi, zukkoligi bilan ibrat boʻlmasdan, maʼnaviyatini boyitish va kasb mahoratini takomillashtirish ustida izlanmay turib, talabalar hurmatiga sazovor boʻlgan sevimli tarbiyachi-ustoz, yuksak mahoratli pedagog boʻlishi mumkin emas. Tarbiyachi-ustoz, pedagog-oʻqituvchi jamiyatning yosh avlod taʼlim-tarbiyasiga qoʻygan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ishtirokchisidir;

– uchinchidan, eng muhim vazifa – bu talabalarni oʻz faniga qiziqtirish. **Buning** uchun oʻqituvchi, avvalo, talabalar hurmatini qozona olishi hamda pedagogik mahoratga ega boʻlishi zarur. Talaba oʻqituvchiga mehr qoʻysagina, fanga qiziqadi va qunt bilan oʻrganadi. Zero, oʻqituvchi oʻz maqsadiga erishishda talabalarning faolligi, ularga doʻstona munosabati, uning ortidan ergashishi kabi xususiyatlarga ega boʻlishi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar pedagog shu ishning uddasidan chiqsa, dars jarayonida qoʻllanilayotgan pedagogik texnologiyalar oʻqituvchi va talaba hayotiga yengillik olib kelishi, talabaning qiziqib oʻqishiga imkon berishi va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatishini kafolatlashi shubhasizdir.

**MA'RUZA MASHG'ULOTI MAVZULARI BO'YICHA TA'LIM  
TEKNOLOGIYALARI**

**Mavzu: Oila psixologiyasi fan sifatida  
Kirish ma'ruzasi ta'lim texnologiyasi modeli**

<i>Talabalar soni:</i> 50-60 nafar	<i>Ma'ruzaga ajratilgan vaqt:</i> 2 soat.
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Ma'lumotli kirish ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Oila psixologiyasining psixologik bilimlar tizimidagi o'rni. 2. «Oila psixologiyasi» fani predmeti, maqsadi va vazifalari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga oila psixologiyasi fanining psixologik bilimlar tizimidagi o'rni haqida tushuncha berish, uning maqsadi, predmeti va vazifalarini tushuntirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zaruratini va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligini sharhlash.	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari</i>
1. Oila psixologiyasining psixologik bilimlar tizimidagi o'rni haqida ma'lumot berish;	Talabalar oila psixologiyasining psixologik bilimlar tizimidagi o'rni haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
2. Fanning predmeti, maqsad va vazifalari haqida tushuncha berish.	Talabalar fanning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari haqida tushunchalarga ega bo'ladilar.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, "Aqliy hujum", "Klaster", "Blits- so'rov", "T- jadval" texnologiyasi.
<i>O'qitish vositalari</i>	Kompyuter texnologiyasi («Oila psixologiyasi» fani-dan elektron o'quv-uslubiy majmua), slaydlar.
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoa bo'lib ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullari-ni qo'llash mumkin bo'lgan o'quv-xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Kuzatish, og'zaki nazorat, savol-javob blits-so'rov, o'quv topshiriq.

**Mavzu: Oila psixologiyasi fan sifatida  
Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti – 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini bayon etadi (1-ilova).	Tinglaydilar, mavzu nomini yozib oladilar.
	1.2. Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar bilan tanishtiradi (2- ilova).	Yozib oladilar.
	1.3. "Aqliy hujum" usuli orqali talabalarning dastlabki bilimlarni aniqlashtiradi. (3- ilova)	Fan yuzasidan dastlabki bilimlarini o'rtoqlashadilar.
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqa)	2.1. Mavzuning birinchi va ikkinchi rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi (4-ilova). Mavzu bo'yicha "Klaster" usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Oila psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat? (5- ilova)	Taqdim etiladigan mavzu rejasi va o'zlashtirishi lozim bo'lgan tushunchalarga e'tibor qaratadilar.
	2.2. "T-jadval" texnikasidan foydalangan holda talabalarga topshiriqlar beradi (6-ilova). Oila psixologiyasini o'rganish shaxsga nima beradi? Aksincha-chi? - kabi savollarga talabalar javob topishlarida qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishlariga imkon yaratadi. Diqqatlarini jalb qiladi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.	Yozadilar, savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar.
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. "Blits-so'rov" texnologiyasi orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.(7-ilova)	"Blits- so'rov" texnologiyasi orqali jadvalni to'ldiradilar.
	3.2. O'z-o'zini nazorat qilish uchun test savollari beradi (8-ilova)	Yozib oladilar.

## **MAVZU: Oila psixologiyasi fan sifatida**

### **Reja:**

1. Oila psixologiyasining psixologik bilimlar tizimidagi o‘rni.

2. “Oila psixologiyasi” fani predmeti, maqsadi va vazifalari

**O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:** Oila psixologiyasi fani haqida tushuncha berish, fanning maqsadi, predmeti va vazifalari bilan tushuntirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zaruratini va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligini sharhlash.

**O‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar:** Talabalarga oila psixologiyasi fanining o‘ziga xos jihatlari, oila psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari, tadqiqot metodlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zarurati haqida tushuncha berildi.

2- ilova

**Mavzu yuzasidan tayanch so‘zlar:** oila, nikoh, yosh oila, oila kodeksi, oilaviy munosabatlar, jamiyat, shaxs, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash.

3- ilova

**“Aqliy hujum” usuli orqali dastlabki bilimlarni aniqlashtiradi:**


1. «Oila» tushunchasini izohlab bering.

2. Oilaviy hayotga tayyorlash deganda nimani tushunasiz?

3. Oila psixologiyasi fanini o‘qitishdan maqsad nima?

4. Oila psixologiyasining vazifalari nimalardan iborat?








5- ilova

**“Klaster” texnologiyasi asosida oila psixologiyasining vazifalarini yoriting:**



### T-jadvalni to'ldiring.

Oila psixologiyasini o'rganish shaxsga nima beradi?	Aksincha-chi?

### “T – jadval” texnologiyasi

- bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar mumammo xarakteridagi mav-zularni o'rganishga qaratil-gan, bunda ularning har biri alohida nuqtalarda muhokama etiladi. Masalan ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kanchiliklari, bir g'oyaning ikki tomoni, foyda va zararlari;

- **tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlash muvaffaqiyati rivojlantirishiga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkon yaratadi;**  
- ma'ruza yakunida qo'llaniladi;

T-jadval qonun-qoidalari bilan ta-nishib chiqadi.  
Yakka tarkibda yoki juft-juft bo'lib « T-jadval »ni to'ldiradi

O'z g'oyalarini yozma ravishda o'ng va chap taraflarida yozib chiqadilar. G'oyalar qarama-qarshi bo'lishi mumkin.

Jadvaldagi g'oyalar taqqoslanishi va yakka tartibda, juft-juft holda yoki kichik guruhlarda to'ldirilishi mumkin.

Har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etadi

**BLITS - SO'ROV**

1. Oila psixologiyasi fanining predmeti nima?
2. Oila psixologiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Oila psixologiyasining qanday metodlarini bilasiz?
4. Oila psixologiyasi qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq?
5. Yoshlarni oilaga tayyorlash nima uchun zarur?
6. Davlat va jamiyat miqyosida oilaga oid xujjatlarni ayting.

**Mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. O'zbekistonda yosh oilalarning qo'llab-quvvatlanishi.
2. XXI asr oilasi konsepsiyasining asosiy mazmuni.
3. Oila psixologiyasi fanining predmeti.
4. Oila psixologiyasining fanlar tizimidagi o'rni.

## **Mavzu yuzasidan o'z o'zini nazorat qilish uchun test savollari**

1. "Oila psixologiyasi" fanining vazifalari qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) yoshlarni oilaviy hayotda kuzatiladigan o'zgarishlar haqidagi ilmiy bilimlar bilan tanishtirish;
- B) yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash;
- C) yoshlarda oilaning mustahkamligini ta'minlovchi bilim va malakalarni shakllantirish;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

2. Insoniyat ijtimoiy tashkil topishining eng qadimiy shakli bu...

- A) urug'; B) jamoa; C) xalq; D) millat.

3. Oila psixologiyasi fanining predmeti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Oila psixologiyasi haqida muhim bilimlarni berish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash;
- B) yoshlarni jinsiy hayotga ilmiy asosda tayyorlash;
- C) yoshlarni oilaviy muloqotga tayyorlash;
- D) yoshlarni oilani rejalashtirishga o'rgatish.

4. Konstitutsiyaning nechanchi bobi oilaga bag'ishlanadi?

- A) 14-bobi; B) 10-bobi; C) 13-bobi; D) 12-bobi.

5. O'zbekiston Respublikasida oilani kafolatlovchi manbalar qaysilar?

- A) Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Konstitutsiya;
- B) Mehnat kodeksi, Soliq kodeksi;
- C) Inson huquqlarini himoya qilish kodeksi, Konstitutsiya;
- D) Xalqaro huquq normalari.

**Mayzu: Oila psixologiyasi fan sifatida  
Ma'lumotli ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi modeli**

<i>Talabalar soni: 50 -60 nafar</i>	<i>Ma'ruzaga ajratilgan vaqt: 2 soat</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	<i>Ma'lumotli ma'ruza</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<p>1. Oilaviy psixologiyaning tadqiqot metodlari: kuzatish, konkret vaziyatlarni tahlil qilish, suhbat, eksperiment, statistik metodlar.</p> <p>2. Oilaviy munosabatlarni tadqiq etishning nazariy - metodologik asoslari.</p> <p>3. Jinsiy farqlar psixologiyasi: gender tadqiqotlarning xususiyatlari.</p>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarni oila psixologiyasida qo'llaniladigan metodlarga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
1) Oilaviy psixologiyaning tadqiqot metodlari: kuzatish, konkret vaziyatlarni tahlil qilish, suhbat, eksperiment, statistik metodlar xususidagi nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish.	Oilaviy psixologiyaning tadqiqot metodlari: kuzatish, konkret vaziyatlarni tahlil qilish, suhbat, eksperiment, statistik metodlar haqidagi tasavvurlar shakllanadi.
2) Oilaviy munosabatlarni tadqiq etishning nazariy - metodologik asoslari bilan tanishtirish.	Oilaviy munosabatlarni tadqiq etishning nazariy - metodologik asoslari haqida aniq tasavvurlarga ega bo'ladilar.
3) Jinsiy farqlar psixologiyasi: gender tadqiqotlarning xususiyatlarini tushuntirib beradi.	Jinsiy farqlar psixologiyasi: gender tadqiqotlarning xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni bilib oladilar.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, "Tushunchalar tahlili", "T-jadval".
<i>O'qitishshakli</i>	Ma'ruza, ommaviy
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya

**Mavzu: Oila psixologiyasi fan sifatida  
Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti – 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
<b>1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqa)</b>	<p>1.1. "Tushunchalar tahlili" usuli orqali talabalarning mavzuga oid tushunchalar haqidagi umumiy tasavvurlari aniqlanadi (1-ilova).</p> <p>1.2. Imkon darajasida ko'proq talabalarning fikr - mulohazalarini eshitadi.</p> <p>1.3. Mavzuning nomlanishi, reja, maqsad va kutilayotgan natijalarini bayon etadi (2-ilova).</p>	<p>O'z bilimlariga tayan-gan holda o'qituvchi-ning savoliga javob be-radilar.</p> <p>Aksariyat talabalar ting-laydilar, fikrlaydilar.</p> <p>Mavzuning nomlanishi va rejalarini daftarlariga qayd etadilar.</p>
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqa)</b>	<p>2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza mat-nini tarqatadi, uning rejasi bilan tanishishni taklif etadi (2- ilova).</p> <p>2.2. Taqdimot texnologiyasi yor-damida mavzuning barcha rejasi bo'yicha nazariy ma'lumotlarni bayon qiladi (3–5-ilovalar).</p> <p>2.3. Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilimlarini yanada must-ahkamlash maqsadida "T-jadval" texnologiyasi qo'llaniladi. (6- ilo-va).</p>	<p>Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim chiz-ma va jadvallarni o'z daftarlariga qayd etadilar.</p>
<b>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xu-losalarni shakllantiradi.</p> <p>3.2. Test savollari orqali talabalar-ning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi (7-ilova).</p>	<p>Tinglaydilar, fikrlaydi-lar.</p> <p>Fikr almashadilar.</p>

*Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:* oila, nikoh, metod, asosiy metodlar, yordamchi metodlar, kuzatish, kontent analiz, eksperiment metodi.

**“Tushunchalar tahlili” jadvalini to‘ldiring.**

<b>Tushunchalar</b>	<b>Ta’rif</b>
Metod	
Asosiy metodlar	
Yordamchi metodlar	
Kuzatish	
Kontent analiz	
Eksperiment	

**MAVZU: Oila psixologiyasi fan sifatida****Reja:**

1. Oilaviy psixologiyaning tadqiqot metodlari: kuzatish, konkret vaziyatlarni tahlil qilish, suhbat, eksperiment, statistik metodlar.

2. Oilaviy munosabatlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.

3. Jinsiy farqlar psixologiyasi: gender tadqiqotlarning xususiyatlari.

***O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:*** Talabalarni oila psixologiyasida qo‘llaniladigan metodlarga oid nazariy ma’lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.

***O‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar:*** Talabalar oila psixologiyasi doirasida qo‘llaniladigan asosiy va yordamchi metodlar haqidagi bilimlar bilan qurollantiriladi.



## Oilaviy psixologiyaning tadqiqot metodlari: kuzatish, konkret vaziyatlarni tahlil qilish, suhbat, eksperiment, statistik metodlar

### OILA PSIXOLOGIYASINING ASOSIY METODLARI


**Kuzatish metodi.** Oilaviy munosabatlarni kuzatish deb oilaviy va turmush vaziyatlarida odamlarning tashqi xulq-atvorini idrok etish va muntazam qayd etib borishga bog'liq faoliyatga aytiladi.

**Konkret vaziyatlarni tahlil qilish metodi.** Oila muhitida yoki hayotiy sharoitlarda ro'y bergan voqea-hodisalarni qayd etish unga kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda o'rganayotgan shaxs testlar o'tkazishi, oila a'zolarining biografii: ma'lumotlarini tahlil etishi yoki aniq maqsadli so'rov o'tkazishi mumkin.


**So'rov metodi.** Odatda psixolog bir xonadonga kirib, hammada birdan so'rov o'tkaza olmaydi, u kim bilan, qachon va qanday maqsadda so'rov o'tkazishi lozimligini aniq bilishi va oldindan tanlovni belgilab qo'ygan bo'lishi lozim.

**Eksperiment.** Ushbu usul yordamida bir omil ta'sirining boshqa bir omil yoki holatning kelib chiqishiga turtki bo'lishini aniqlash mumkin. Odatda oilaviy munosabatlar dinamikasini o'rganishda, u yoki bu hodisalar yoki omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda eksperiment usulidan foydalaniladi.

**Statistik metodlar.** Matematik statistikaning qator usullari empirik izlanishlar davomida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning qay darajada ilmiy jihatdan asoslanganligini isbotlash maqsadida qo'llaniladi.




## Oila psixologiyasining asosiy metodlari



4- ilova

## Oilaviy munosabatlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari



Shu bois ham oila yoʻnalishida oʻtkaziladigan tadqiqotlarda uning ijtimoiy guruh sifatida oʻzigagina xos boʻlgan sifatlari, xususiyatlari borligini unutmash lozim. Bular quyidagilar:

- bir emas, bir necha umumiy maqsadlarning boʻlishi; yaʼni, agar mehnat jamoasida aʼzolari birlashtiruvchi yagona maqsad tan olin- sa, oilada bunday maqsadlar bir nechta ham boʻlishi mumkin va ular oilaviy hayot mobaynida oʻzgarib ham turadi. Masalan, yaxshi niyat bilan birgalikda yashash maqsadiga keyinchalik sogʻlom farzand koʻrish, oʻgʻil bola boʻlsa, sunnat toʻyi qilish, farzandni maktab taʼlimi- ga tayyorlash, toʻy qilish, uylantirish kabi qator yirik maqsadlar va orzu-havaslar paydo boʻlaveradi, oilaviy hayotning mazmuni va uning jozibasi ham ana shu kabi maqsadlar va ularni amalga oshirishda er- xotin inoqligi, hamfikrligi bilan belgilanadi;

- oila aʼzolari manfaatlari, qiziqishlari va intilishlaridagi muayyan tafovutlar va kelishmovchiliklarning tabiiy holat ekanligi; ayniqsa, bu oilada katta avlod vakillari ustanovkalari bilan ularning farzandlari oʻrtasidagi ziddiyatlarda ham ifodalanadi(avlodlararo ziddiyat), koʻp holatlarda bu kabi tafovut yoki ziddiyatlar konstruktiv xarakter ham kasb etadi;

- alohida yashaydigan oilada er-xotin munosabatlarining boshqa munosabatlarga sezilarli taʼsiri, masalan, farzandlarning tarbiyalan- ganlik darajasiga;


- oilaviy murosa yoki hamjihatlikka boshqa qarindoshlar, masalan, keksalarning taʼsiri;

- oila aʼzolari oʻrtasida hamkorlik faoliyati va uning samarasi un- chalik sezilmasligi, masalan, oilada urning oʻz oʻrni va mashgʻulotlari, ayolning oʻz oʻrni va vazifalarining boʻlishi;

- muomala va oʻzaro hurmat normalarining katta ahamiyatga ega ekanligi, hamisha bir-birining koʻngliga qarashning oila mustahkamligi omili ekanligi;

oilada oʻzaro taʼsir, yashirin, xufiyona ishlarning oilaviy munosa- batlarga salbiy taʼsiri.

## Jinsiy farqlar psixologiyasi: gender tadqiqotlarning xususiyatlari.



Norijda oila muhitini inobatga olgan gender tadqiqotlarning qisqacha tahlili

*Mishel Paludining* yozishicha, bugungi kunda gender psixologiyasi sohasida asosan androtsentrik qarashlar ustivorligi kuzatilmoqda. Ya'ni, ikkala jins vakilida ham bir-biridan tomonan farq qilmaydigan, ikkizlasida ham kuzatish mumkin bo'lgan psixologik xususiyatlar kuzatilmoqdaki, bu ularning eng avvalo ota va nikoh masalalaridagi qarashlar uyg'unligidan kelib chiqadi.

Amerikalik tadqiqotchi *David Mayers* jins, gender va madaniyat masalalarini o'rganar ekan, genderini – erkaklik va ayollik xususiyatlarini tavsiflovchi tushuncha sifatida, jinsiy tafovutlarni o'rganish xotin-qizlarning erkaklarga nisbatan anchaгина masalalarda ustunlikka ham ega ekanligini alohida ta'kidlaydi.

*Eagly va Johnson (1990)* izlanishlarida odamlar bilan muomalada erkaklar ko'proq avtoritarlikni, xotin-qizlar esa demokratiyani namoyon qilishi isbotlangan. Boshqaruvda erkaklarga do'q qilib, direktiv ohangda boshqarish, qarorlar qabul qilishma'qulroq bo'lsa, ayollarga – "komanda, jamoa ruhi" bilan jamoatchi lider bo'lishosnroqdir.

*Rossi (1990)* tadqiqotlari oilaga nisbatan gender ustanovkalariga bag'ishlangan bo'lib, ayollar – onalar, opalar, qizlar va buvilar tasavvurida oila bu muayyan yaxlitlik, birlik ramzi ekanligi va shuning uchun ham asosan vaqtlarini farzandlariga, ayniqsa, ular maktabgacha yoshda bo'lgan vaqtlarida hamda keksaygan insonlarga bag'ishlashi o'rganilgan.

Aynan ayollar, tadqiqotchilarning fikricha, insonlar bilan bo'ladigan munosabatlarda iliqlik, yaqinlik tarafdorlaridir (*Nancy Chodorow, Jean Baker Miller, Corol Gilligan* va boshqalar).

*Leverning* ta'kidlashlaricha, jinsiy tafovutlar aynan yoshlik chog'idanoq namoyon bo'la boshlaydi. O'g'il bolalar, masalan, yoshlikdanoq mustaqillikka intilsa, qizlar o'zaro bog'liqlikka, kimsalar bilandir birga bo'lishga intiladi.

O'zbekistonda oila muhitini inobatga olgan gender tadqiqotlarning qisqacha tahlili

*V.Karimova* oila va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganishga bag'ishlangan asarlarida oilada yoshlarni gender munosabatlarga tayyorlash muammolariga, gender tasavvurlarining shaxs tarbiyasidagi o'rni (2006) kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

*M.Salaeva (2005)* o'zbek oilalarida onalarning otalarga nisbatan farzandlarga o'ta g'amxo'rligi, ya'ni ularni qiyinchiliklardan saqlash, ziyon yetkazib qo'yishdan qo'rqish, farzandning o'ziga bog'langanligi va tobeligini rag'batlantirish, ularda shahoviylik va tajovujkorlikni oldini olish kabi xususiyatlarning kuchliligi isbotlangan.

**“T-jadval” asosida oilani o‘rganishda qo‘llanadigan  
metodlarning afzallik va kamchiliklarini aniqlang.**

1)

Oila muammolarini o‘rganishda kuzatish metodining afzalliklari	Oila muammolarini o‘rganishda kuzatish metodining kamchiliklari

2)

Oila muammolarini o‘rganishda eksperiment metodining afzalliklari	Oila muammolarini o‘rganishda eksperiment metodining kamchiliklari

7 -ilova

**Mavzu yuzasidan o‘z o‘zini nazorat qilish uchun test savollari**

1. Hozirgi davrda balog‘atga yetish davri necha yoshga to‘g‘ri kelmoqda?

A) 12-13; B) 16-18; C) 13-15; D) 14-15.

2. Oila psixologiyasi faninig predmeti qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) oila psixologiyasi haqida muhim bilimlarni berish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash;

B) yoshlarni jinsiy hayotga ilmiy asosda tayyorlash;

C) yoshlarni oilaviy muloqotga tayyorlash;

D) yoshlarni oilani rejalatirishga o‘rgatish.

3. “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”. Bu jumla O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida keltirilgan?

A) 63-moddasida; B) 10-moddasida;

C) 42-moddasida; D) 5-moddasida

4. Gender psixologiyasi tarixida necha bosqichni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin?

A) 5; B) 4; C) 3; D) 2

5. O‘zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi»da erkak va ayollar uchun minimal nikoh yoshi sifatida necha yosh ko‘rsatilgan?

A) 18 yosh; B) 20 yosh; C) 17 yosh; D) 16 yosh

**Mavzu: Sharq mutafakkirlarining oila xususida qarashlari  
Ma'lumotli ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi modeli**


<i>Talabalar soni:</i> 50-60 nafar	<i>Ma'ruzaga ajratilgan vaqt:</i> 2 soat
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	<i>Ma'lumotli ma'ruza</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. «Avesto»da oila haqida bayon etilgan fikrlar.</li> <li>2. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Yusuf Tovasliy va boshqa mutafakkirlarning oila xususidagi qarashlari.</li> <li>3. Y.Tovasliyning "Hikmatlar xazinasi"dagi nasihatlari. Ibn Sinoning oilaviy munosabatlar haqida qarashlari.</li> <li>4. Islomda oilaviy munosabatlar masalalari.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarda sharq mutafakkirlarining oila haqidagi qarashlari, islomda oilaviy munosabatlar masalalariga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish	
<b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b>	<b><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></b>
<b>1) «Avesto»da oila haqida bayon etilgan fikrlar bilan tanishtirish.</b>	«Avesto»da oila haqida bayon etilgan fikrlar haqida tasavvurlar shakllanadi.
<b>2) Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari bilan tanishtirish.</b>	Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari haqida aniq tasavvurlarga ega bo'ladilar.
<b>3) Islomda oilaviy munosabatlar masalalarining mohiyatini tushuntirib berish.</b>	Islomda oilaviy munosabatlar masalalari haqidagi ma'lumotlarni bilib oladilar.
<b>4) Mavzuning asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatish.</b>	Mavzuning asosiy tushunchalarini o'zlashtiradilar.
<b><i>O'qitish usullari va texnika</i></b>	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, "Aqliy hujum" usuli, "Tushunchalar tahlili", "Intervyu" texnologiyalari
<b><i>O'qitishshakli</i></b>	Ma'ruza, ommaviy
<b><i>O'qitish vositalari</i></b>	Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya
<b><i>O'qitish shart-sharoitlari</i></b>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<b><i>Monitoring va baholash</i></b>	O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya

**Mavzu: Sharq mutafakkirlarining oila xususida qarashlari**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti – 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
<b>1-bosqich.</b> <b>O'quv</b> <b>masgh'ulotiga</b> <b>kirish (Da'vat</b> <b>bosqichi)</b> <b>(10 daqiqa)</b>	1.1. Talabalar o'tgan mavzuni qanday o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida "Moychechak" texnologiyasidan foydalanadi (1-ilova). 1.2. Mavzuning nomlanishi, rejasi, maqsad va kutilayotgan natijalarini bayon etadi (2-ilova).	O'z bilimlariga tayangan holda javob beradilar. Mavzuning nomlanishi va rejalarni daftarlariga qayd etadilar.
<b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy (Anglash</b> <b>bosqichi)</b> <b>(60 daqiqa)</b>	2.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar bilan tanishishni taklif etadi (3- ilova). 2.2. "FSMU" texnologiyasi asosida Avestodagi fikrlarni tahlil qiladi (4-ilova). 2.3. Taqdimot texnologiyasi yordamida asosiy nazariy ma'lumotlarni bayon etadi (5-ilova). 2.4. Jalb qiluvchi savollar bilan murojaat etadi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatadi, har bir o'quv birligi bo'yicha xulosalar qiladi (6-ilova).	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim chizma va jadvallarni o'z daftarlariga qayd etadilar.
<b>3-bosqich.</b> <b>Yakuniy</b> <b>(Fikrlash</b> <b>bosqichi)</b> <b>(10 daqiqa)</b>	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni shakllantiradi. 3.2. Test savollari orqali talabalarning olgan bilimlarini aniqlaydi(7-ilova). 3.3. Mustaqil ishlash uchun mavzular beradi.	Tinglaydilar, fikrlaydilar. Fikrlarni o'rtoqlashish jarayonida o'z tasavvurlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydilar.



**“Moychechak” usulidan foydalangan holda oila psixologiyasining asosiy metodlarini aniqlang.**



**Mavzu: Sharq mutafakkirlarining oila xususida qarashlari****Reja:**

1. «Avesto»da oila haqida bayon etilgan fikrlar.
2. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning oila xususidagi qarashlari.
3. Y.Tovasliyning “Hikmatlar xazinasi”dagi nasihatlari. Ibn Sino-ning oilaviy munosabatlar haqida qarashlari.
4. Islomda oilaviy munosabatlar masalalari.

***O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:*** Talabalarni sharq mutafakkirlarining oila haqidagi qarashlari, islomda oilaviy munosabatlar masalalariga oid nazariy ma’lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish

***O‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar:*** Talabalarga Avestoda oila xususida bayon etilgan fikrlar, sharq mutafakkirlarining oila haqidagi qarashlari va islomda oilaviy munosabatlar masalalari haqidagi ma’lumotlar izohlab beriladi.


**Mavzu yuzasidan tayanch so‘zlar:** oila, nikoh, oilaviy munosabatlar, jamiyat, shaxs, oila tarbiyasi, er-xotin munosabatlari.

**Avestoda keltirilgan quyidagi fikrni FSMU  
texnologiyasi orqali tahlil qiling:**

	<b>“Jamiyat individga nisbatan o‘zgarmas bir birlikki, uning taraqqiyoti jamiyat rivojlanishi qonunlariga bo‘ysunadi”.</b>
F – fikringizni bayon eting	
S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
M – ko‘rsatilgan sababga biror misol keltiring	
U – fikringizni umumlashtiring	

Sharq mutafakkirlarining asarlarini tahlil etadigan bo'lsak, ularning ko'pchiligi o'z asarlarida ijtimoiy psixologik g'oyalarni bayon etganligini ko'rishimiz mumkin. Abu Nasr Farobiyning ijtimoiy-siyosiy va axloqqa oid g'oyalari, ya'ni uning fozil davlat va ma'rifatparvar, dono, davlat rahbari haqidagi ta'limoti juda mashhurdir. Abu Nasr Farobiy o'rta asr mutafakkirlaridan birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi va davlatni boshqarish haqida bilimlar tizimini yaratdi.

Jumladan, Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida shaxs va jamiyat munosabatlariga doir fikrlarni quyidagicha izohlagan: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashashi va oliy darajadagi yetuklikka erishmogi uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. Odamzod yoig'iz o'zi bunday narsalarga erisha olmaydi va ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda, ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnamashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi».



## Alisher Navoiy

Ayol kishining oiladagi o'rniga to'xtalib: «Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo'lsa – ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa – jon ozig'idir. Tili achchiq bo'lsa, barchaning dilini yaralaydi, pokiza bo'lmasa, eriga yuzi qoralik keltiradi, agar mayxur bo'lsa, uy odobi yo'qoladi, axloqsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi» degan.




### **Yusuf Tavasliy to'plagan «Hikmatlar xazinasida» kelin bo'luvchi qizga beriladigan ona o'g'itlari:**

- Qanoat sohibasi bo'l.
- ✧ Eringga itoat qill
- ✧ Eringning ko'zi tushadigan uy - joylarga yaxshi ber!
- ✧ Ust-boshingni toza tut.
- ✧ Ovqatni vaqtida tayyorla.
- ✧ Uyqu vaqtini, uyg'onish paytini yaxshi bilib oll
- ✧ Eringning molu-ashyosiga juda e'tiborli bo'll
- ✧ Eringning qarindosh va yaqinlariga hurmat ko'r
- ✧ Eringning sirini boshqalarga aytma!
- ✧ Eringning dinga to'g'ri keladigan barcha buyruqado qill



Quyidagi fikr qaysi hadisga tegishliligini aniqlang.



6- ilova

**O'z-o'zini nazorat qilish uchun Blits-so'rov savollari**

**BLITS - SO'ROV**

1. Avestoda oila xususida qanday fikr bayon etilgan?
2. Y.Tovasliyning "Hikmatlar xazinasi"dagi nasihatlari haqida aytib bering.
3. Ibn Sinoning oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari haqida ayting.
4. Islomda oilaviy munosabatlar masalalari haqida nimalarni bilasiz?

**Mavzu yuzasidan o‘z - o‘zini nazorat qilish uchun test savollari**

1. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”. Ushbu ibora qaysi mutaffak-  
kirning asarida keltirilgan?

- A) A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”
- B) Kaykovus “Qobusnoma”
- C) S.Sa’diy “Guliston va bo‘ston ”
- D) A.Jomiy “Bahoriston”

2. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi “Oila saboqlari”, “Qizlar tar-  
biyasi” kabi kitoblar muallifini aniqlang.

- A) Faxr-ul banot Sigbatulloh qizi
- B) Jahon otin Uvaysiy
- C) Zulfiya
- D) Nodirabegim

3. Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida kuchli muhabbatni qanday  
ta’riflaydi?

- A) Uni kasallik sifatida ta’riflaydi va «davolanish» yo‘llarini ko‘rsatib o‘tadi;
- B) uni eng oliy tuyg‘u deb ta’riflaydi;
- C) uni fazilat sifatida ta’riflaydi;
- D) uni hech qanday ahamiyatga ega emas deb ta’riflaydi.

**Mavzu: Insoniyat tarixida oila va nikoh  
institutining rivojlanishi tarixi  
Ma'lumotli ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi modeli**

<i>Talabalar soni:</i> 50-60 nafar	<i>Ma'ruzaga ajratilgan vaqt:</i> 2 soat
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	<i>Ma'lumotli ma'ruza</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Nikoh-oila munosabatlari yuzaga kelishi.</li> <li>2. «Tabu» va uning nikoh - oila munosabatlarining yuzaga kelishidagi roli</li> <li>3. «Sovg'a ayriboshlash» va uning nikoh-oila munosabatlarining yuzaga kelishidagi roli.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarni insoniyat tarixida oila va nikoh institutining rivojlanishi tarixiga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
1) Insoniyat tarixida oila va nikoh munosabatlarining rivojlanish dinamikasining mazmun- mohiyatini ochib berish.	1) Insoniyat tarixida oila va nikoh munosabatlarining rivojlanish tarixini o'rganadilar.
2) Endogamiya, ekzogamiya, ibtidoiy egalitar nikoh, juft nikoh, monogamiya tushunchalarini ochib berish.	2) Endogamiya, ekzogamiya, ibtidoiy egalitar nikoh, juft nikoh, monogamiya kabi tushunchalarni o'zlashtiradilar.
3) Oilaviy munosabatlar rivojlanishida yangicha an'analar haqida tushuncha berish.	3) Oilaviy munosabatlar rivojlanishidagi yangi an'analar haqida, olimlarning oila borasidagi fikrlari bilan tanishadilar, tahlil qiladilar, o'rganadilar.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, «Klaster», «Insert» jadvali
<i>O'qitish shakli</i>	Ma'ruza, ommaviy, guruhli
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya

**Mavzu: Insoniyat tarixida oila va nikoh  
institutining rivojlanishi tarixi  
Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti – 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabatar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqa)	1.1. Mavzuning nomlanishi, maqsad va kutilayotgan natijalarini bayon etadi (1-ilova). 1.2. "Klaster" texnologiyasi orqali mavzu yuzasidan talabalarning dastlabki tasavvurlari aniqlanadi(2-ilova).	O'z fikrlarini boshqalar bilan o'rtoqlashishadilar. Tinglashadilar, yozib boradilarlar.
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqa)	2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini tarqatadi. 2.2. Taqdimot texnologiyasi yordamida asosiy nazariy ma'lumotlarni bayon etadi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatadi (3-4-ilova). 2.3. Jalb qiluvchi savollar bilan murojaat etadi (5- ilova).	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim chizma va jadvallarni o'z daftarlariga qayd etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqa)	3.1. "Insert" jadvali orqali talabalaning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi (6-ilova). 3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. 3.4. Mustaqil ta'lim uchun topshiriq beradi va uni baholash mezonlari bilan tanishtiradi (7-ilova).	"Insert" jadvalini individual tarzda to'ldirishadilar. Muhokama jarayonida o'z fikrlarini boyitadilar va to'ldiradilar. Topshiriqni yozib oladilar.




**Mavzu: Insoniyat tarixida oila va nikoh institutining rivojlanishi tarixi**

1. Nikoh-oila munosabatlarining yuzaga kelishi.
2. «Tabu» va uning nikoh-oila munosabatlarining yuzaga kelishidagi roli.
3. «Sovg'a ayriboshlash» va uning nikoh-oila munosabatlarining yuzaga kelishidagi roli.
4. Oilaviy munosabatlar rivojlanishida yangicha an'analar.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Talabalarni insoniyat tarixida oila va nikoh institutining rivojlanishi tarixiga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.

**O'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar:** Insoniyat tarixida oila va nikoh institutining rivojlanishi tarixiga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishadilar, nikoh-oila munosabatlari yuzaga kelishi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

**Klaster asosida oilasining ilk turlarini aniqlang.**



### Mavzu yuzasidan tayanch soʻzlar:

**Mavzu yuzasidan tayanch soʻzlar:** nikoh, estrus, endogamiya, ekzogamiya, tabu, “sovgʻa ayriboshlash”, egalitar nikoh, guruhli nikoh, er-xotin munosabatlari, matriarxat, patriarxat, juftli oila, monogam oila.

Nikoh munosabatlarining yuzaga kelishining ilk bosqichlarida jinski oʻrtasidagi munosabatlar asosan biologik omillar bilan boshqarilgan

Estrus - qoʻshilishga moyillikning kuchli shiddatli namoyon boʻlishi


Vaqt vaqti bilan

1 oyda  
4-5 kun

1 oyda  
19 kungacha

Endi ayollar «sovuqqonlik» oʻzining jinsiy maylini nazorat qilishga boʻlajak qizilga yopqidan erishish bilan munosabatlarda boʻlishadi

Erkaklarga nisbatan tanlab munosabatda boʻlish – oʻziga xos insoniy muhabbatning biologik poydevori yuzaga kela boshlaganligidan dalolat beradi





Tabu - axloqiy me'yorlarga qaraganda ancha jiddiy va qattiq ta'qiqdir. O'z navbatida tabular keyinchalik nikohning ilk turlaridan bo'lmish ekzogam nikohlarni yuzaga keltiradi. Chunki tabular faqat o'z urug'i uchungina taalluqli bo'lib, unda qon-qarindoshlar o'rtasida jinsiy muloqot ta'qiqlangan, boshqa qabila yoki urug' a'zolariga esa taalluqli bo'lmagan. Shuning uchun erkaklarga qayerdadir, ovloq joyda boshqa urug'ga mansub bo'lgan ayolni uchratib qolib undan shahvoniy obyekt sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan.

Keyinchalik bu tasodifiy aloqalar qabila qoidalarida odatiy, zaruriy, ko'zda tutilgan odatlarga aylanib bordi. Bu o'rinda odamlarga, bu «boshqa urug'dagilar» bilan bo'lgan aloqalardan tug'ilgan nasllar nisbatan bo'ydor, baquvvat, abjir ekanligi sezilib bordi.

Shunday qilib, agomiya, ya'ni jinsiy munosabatlarning vaqtinchalik ta'qiqlanishi orqali ekzogamiya yuzaga keldi. Bundan nikohning guruhli nikoh turi yuzaga kelgan. Guruhli nikohda bir urug' erkaklari boshqa urug'ning barcha ayollari uchun er va aksincha ikkinchi urug'ning erkaklari birinchi urug' ayollarining erlari hisoblangan.

Tabiiyki, guruhli nikohda u yoki bu bolaning otasi kim ekanligini aniqlash mushkul bo'lgan, shuning uchun bolalarning kelib chiqishi faqat ona tomonidagina hisoblangan. Urug'ni faqat ayolga tegishli tomoni tan olingan. Bolalar faqat o'z onasinigina bilganlar. Ularning singillari, singillarining bolalari, tug'ishgan aka-ukalari va boshqa qarindoshlar ona urug'ini tashkil qilgan.

### Jonlantirish uchun savollar

1. Insoniyat tarixida oilaning paydo bo'lishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan deb o'ylaysiz?
2. Nima uchun uzoq yillar davomida insoniyat tarixida matriarxat davri ustuvor bo'lib kelgan?
3. "Tabu" nikoh-oila munosabatlarining yuzaga kelishida qanday rol o'ynagan?
4. Nikohning ilk turlari haqida ayting.

### Insert jadvali

**Grafik tashkil etuvchining turi, ahamiyati va xususiyatlari**

**O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi**

#### "INSERT" jadvali

Mustaqil o'qish vaqtida olgan ma'lumotlarni, eshitgan ma'ruzalarni tizimlashtirishni ta'minlaydi; olingan ma'lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o'zlashtirgan ma'lumotlarni bog'lash qobiliyatini

Insert jadvalini to'ldirish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida o'zlari to'ldiradilar

O'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni alohida o'zlari tizimlashtiradilar – jadval ustunlariga matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq "kiritadilar":

"V" - men bilgan ma'lumotlarga mos,

"-" - men bilgan ma'lumotlarga zid,

"+" - men uchun yangi ma'lumot;

"?" - men uchun tushunarsiz yoki

*Insert jadvali*

V
-
+
?

“V”- men bilgan ma’lumotlarga mos;

“-“ - men bilgan ma’lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma’lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi.

7- ilova

**Mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladigan mavzular:**



**Mavzu yuzasidan o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun test savollari**

1. Tabuni buzganlar qanday jazolangan?

A) ular buni bilib qilganmi yoki bilmaymi, bundan qat’iy nazar jazolangan; B) jamoa fikri inobatga olingan;

C) aybiga iqror bo‘lgandan keyin kechirilgan; D) qatl etilgan.

2. Sovg'a ayriboshlashning yuzaga kelishiga nima sabab bo'ldi?
- A) shaxsiy mulkning paydo bo'lishi;
  - B) tabularning qattiqligi;
  - C) boshqalardan ajralib turishga intilish;
  - D) urug' a'zolarining yaxshi ishlashga harakat qilishi.
3. Bir necha opa-singillarning boshqa bir toifa erkaklar guruhi bilan nikohga kirishini taqozo etgan oila- bu... ?
- A) Guruhli oila;
  - B) Juft oila;
  - C) Patriatxat oila;
  - D) Monogam oila.
4. Bir erkak va bir ayol juftligi o'rtasidagi nikoh bu...?
- A) Monogam oila;
  - B) Egzogam oila;
  - C) Guruhli oila;
  - D) Poligam oila.

**Mavzu: Zamonaviy oilaning o‘ziga xosligi, turlari va vazifalari**  
**Ma’lumotli ma’ruzaning ta’lim texnologiyasi modeli**

<b>Talabalar soni:</b> 50-60 nafar	<b>Ma’ruzaga ajratilgan vaqt:</b> 4 soat
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli</b>	<b>Ma’lumotli ma’ruza</b>
<b>Ma’ruza rejasi</b>	1. Yangi davr oilasi: tipologiyasi 2. Hozirgi zamon oilasining o‘ziga xos xususiyatlari 3. Oilaning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni 4. Oilaning asosiy vazifalari
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Talabalarda hozirgi zamon oilasining o‘ziga xos xususiyatlari, turlari, oilaning asosiy vazifalari haqida tasavvurlarni shakllantirish	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O‘quv faoliyati natijalari:</b>
1. Yangi davr oilasi tipologiyasi haqida ma’lumot berish	Yangi davr oilasi tipologiyasi haqida ma’lumotga ega bo’ladilar.
2. Hozirgi zamon oilasining turlari va o‘ziga xos xususiyatlar bilan tanishtirish	Hozirgi zamon oilasining turlari va o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo’ladilar, o‘zlashtiradilar
3. Oilaning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni haqidagi nazariy, amaliy ma’lumotlar bilan tanishtirish	Oilaning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni haqidagi nazariy, amaliy ma’lumotlarga ega bo’ladilar
4. Oilaning asosiy vazifalari haqida tushuncha beradi.	Oilaning asosiy vazifalari (kommunikativ, reproduktiv, tarbiyaviy, regulyativ, relaksatsiya, feliotsitologik) vazifalari haqida tushunchaga ega bo’ladilar.
<b>O‘qitish usullari va texnika</b>	Ma’ruza, “Aqliy hujum” “Klaster”, “B/BX/B”, “Insert” jadvali, «Qanday?» diagrammasi
<b>O‘qitish shakli</b>	Ma’ruza, ommaviy, guruhli
<b>O‘qitish vositalari</b>	Ma’ruza matni, slayd-prezentatsiya
<b>O‘qitish shart-sharoitlari</b>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	O‘z-o‘zini nazorat qilish

**Mavzu: Zamonaviy oilaning o'ziga xosligi, turlari va vazifalari**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti - 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
<b>1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqa)</b>	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova).	Tinglaydilar, mavzu nomini yozib oladilar.
	1.2. "Aqliy hujum" usuli orqali dastlabki bilimlarni aniqlashtiradi(2-ilova).	Yozib oladilar.
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqa)</b>	2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi (3-ilova).	Yozadilar, savollarga javob beradilar.
	2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi (4-ilova). Mavzu bo'yicha "Klaster" usulidan foydalangan holda talabalarni oilaning turlari bo'yicha olgan tushunchalari aniqlanadi (5-ilova).	Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar.
<b>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqa)</b>	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi (6-ilova). 3.3 Navbatdagi mashg'ulotda ko'rildigan mavzuni e'lon qiladi va «Insert» jadvalida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (7-ilova).	Tinglaydilar, fikrlaydilar. Savollarga javob beradilar.

1- ilova

**Mavzu: Zamonaviy oilaning o'ziga xosligi, turlari va vazifalari**

**Reja:**

1. Yangi davr oilasi: tipologiyasi.
2. Hozirgi zamon oilasining turlari va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Oilaning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni.
4. Oilaning asosiy vazifalari.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Talabalarda hozirgi zamon oilasining o'ziga xos xususiyatlari, turlari, oilaning asosiy vazifalari haqida tasavvurlarni shakllantirish.



*O'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar:* Talabalarga hozirgi zamon oilasining o'ziga xos xususiyatlari, turlari, oilaning asosiy vazifalari, oilaning jamiyatda tutgan o'rni haqida tushunshaga ega bo'ladilar.

**Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:**

**Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:** patriarxal monogam oila, monogam, ambivalent, detotsentrik oila, nikohdan tashqari oila, alternativ oila

2- ilova

**“Aqliy hujum” uchun topshiriq.**

**Oila – bu ....**

**Oilaning qanday turlarini bilasiz?**

3- ilova

***Yangi davr oilasi: tipologiyasi, turlari, xususiyatlari*** Oilani turlarga bo'lganda, turli olimlar turlicha yondashadilar. Masalan, Sank-Peterburglik olim *S.I. Golod* (1998) faqat er va xotin hamda ularning farzandlaridan iborat oilalarni tasavvur etgan holda ularning oila davrasidagi ijtimoiy nufuzlari va rollari nuqtayi nazaridan oilani toifalarga bo'lib o'rganishni taklif etadi. Xususan, u monogam oiladagi munosabatlarni oilaviy tabaqalar nuqtayi nazaridan farqlashni taklif etgan. Undan tashqari, *Golod* o'z kitobida oxirgi yillarda Rossiyada keng tarqab borayotgan o'ziga xos tabaqali oilalarga ham ilmiy jamoatchilikning diqqatini qaratadi.


***Patriarxal monogam oila*** – bu o'z mohiyatiga ko'ra oiladagi erkak kishining nufuzi, yetakchilik roli, xotinning unga, farzandlarning otanaga tobeligini nazarda tutadi. Bundan oilada o'g'il bolalar otaning oilasini sira tark etmaydi, aksincha, uylangan taqdirda ham turmush o'rtog'ini shu xonadonga olib keladi, qizlar esa kimga turmushga chiqsa, uning familiyasiga o'tib, o'z ota-onasining uyini tark etadi. Bunday oilada urug'ning atalashi (familiya), shajara va mulkka egalik otaning yo'lidan amalga oshiriladi, oilaviy rollar esa erkaklarniki yoki xotinlarniki tarzida aniq tafovutlanadi. Erkaklar oilaning moddiy boyliklari, resurslari, ta'minoti bilan shug'ullansalar, ayollar asosan uy ishlari bilan band bo'ladilar.

**Hozirgi zamon oilasining turlari va o'ziga xos xususiyatlari**

Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra quyidagilarga farqlanadi:

1. To'liqligiga ko'ra: to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan oilalar.
2. Bo'g'inlar soniga ko'ra: nuklear va ko'p bo'g'inli oilalar.
3. Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, 3-4 bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar.
4. Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar oilasi, aralash tipdagi oila.
5. Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra: oliy ma'lumotlilar, o'rta-maxsus, o'rta, tugallanmagan o'rta va turli saviyadagi ma'lumotga ega bo'lgan qayliqlardan tashkil topgan oila.
6. Oilaning «yoshiga» ko'ra: yosh oila (10 yilgacha turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar), o'rta yoshdagi oila, yetuk yoshdagi oila
7. Qayliqlarning ota-ona oilasining moddiy ta'minlanganlik darajasi jihatidan qudalarining bir-biriga mos ekanligi yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo'yicha bir-biriga mos va mos bo'lmagan oilalar.
8. Regional jihatlariga ko'ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oila.
9. Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko'ra: ajralish saviyasida - nikohdan qoniqqanlik darajasi quyi saviyada bo'lgan oila, o'rta saviyada va nikohdan qoniqqanlik darajasi yuqori saviyadagi oila.
10. Oilada ayol yoki erkak yetakchiligiga ko'ra: er yetakchi bo'lgan oila, xotin yetakchi bo'lgan oila, er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila.
11. Oilada er-xotin orasidagi munosabatlariga ko'ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.
12. Er-xotinning millatiga ko'ra: bir millatli yoki baynalmilal oilalar.
13. Yuridik rasmiylashtirilganligiga ko'ra: sinovdagi oila, rasmiylashtirish arafasidagi oila, nikohdagi oila, nikohdan tashqari oila.


## Klaster



### Klasterni tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalar sifatini muhokama qilmang, faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

**Klaster usulidan foydalangan holda  
zamonaviy oilaning turlarini aniqlang.**



6- ilova

**Mavzu yuzasidan o'z o'zini nazorat qilish uchun test savollari**

1. Oilaning to'liqligiga ko'ra turlari qaysi bandda keltirilgan?

a) to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan oila;

- b) farzandli, farzandsiz oila;
- d) to'liq, noto'liq va ko'p bo'g'inli oila;
- e) er yetakchi bo'lgan oila, xotin yetakchi bo'lgan oila;
- f) nuklear va ko'p bo'g'inli oila.

2. Oilaning bo'g'inlariga ko'ra turlari qaysi bandda keltirilgan?

- a) nuklear va ko'p bo'g'inli oila;
- b) to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan oila;
- d) to'liq, bir bo'g'inli, noto'liq va ko'p bo'g'inli oila;
- e) er yetakchi bo'lgan oila, xotin yetakchi bo'lgan oila;
- f) bir millatli oila, baynalminal oila.

3. Oilaning "yoshi"ga ko'ra turlari qaysi bandda keltirilgan?

- a) yosh oila, o'rta yoshdagi oila, yetuk yoshdagi oila;
- b) yosh oila, o'rta yoshdagi oila;
- d) 1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik oila, qariyalar oilasi;
- e) to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan oila.

7- ilova

### Insert usuli

#### Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – men bilgan ma'lumotga mos;

+ – men uchun yangi ma'lumot;

- – men bilgan ma'lumotga zid;

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

Mavzu savollari	V	-	+	?
Hozirgi zamon oilasining turlari				
Oilaning asosiy vazifalari				
Oilaning to'liqligiga ko'ra turlari				
Oilaning bo'g'inlariga ko'ra turlari				
Oilaning yoshiga ko'ra turlari				

**Mavzu: Zamonaviy oilaning o'ziga xosligi, turlari va vazifalari**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi modeli**

Ish jarayonlari vaqti – 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqa)	1.1 Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova).	Tinglaydilar, mavzu nomini yozib oladilar.
	1.3.“Aqliy hujum” usuli orqali o'tgan dars yuzasidan bilimlarini aniqlashtiradi (2-ilova).	“Aqliy hujum” usuli orqali mavzu yuzasidan o'rtoqlashadilar.
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqa)	2.1 Mavzu rejasining uchinchi va to'rtinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi (3-ilova). Mavzu yuzasidan “Qanday?” (4-ilova) yoki “Klaster” usulidan foydalangan holda talabalarining mavzuni qanday o'zlashtirganliklarini aniqlaydi (5- ilova).	Savollarga javob beradilar, erkin bahsmunozara yuritadilar.
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. Mavzu yuzasidan talabalarining olgan bilimlarini aniqlash uchun “B\B\B” jadvali to'ldiriladi (6- ilova). 3.2 O'z-o'zini nazorat qilish uchun nazorat savollari beradi (7-ilova). 3.3. Olgan bilimlarini mustahkamlash uchun test savollarini beradi (8- ilova). 3.3 Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi.	Tinglaydilar, fikrlaydilar.  Savollarga javob beradilar.  Test yechadilar.  Topshiriqni yozib oladilar.

**Mavzu: Zamonaviy oilaning o'ziga xosligi, turlari va vazifalari**

**Reja:**

1. Yangi davr oilasi: tipologiyasi.
2. Hozirgi zamon oilasining turlari va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Oilaning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni.
4. Oilaning asosiy vazifalari.

***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** Talabalarda hozirgi zamon oilasining o'ziga xos xususiyatlari, turlari, oilaning asosiy vazifalari haqida tasavvurlarni shakllantirish.

***O'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar:*** Talabalarga hozirgi zamon oilasining o'ziga xos xususiyatlari, turlari, oilaning asosiy vazifalari, oilaning jamiyatda tutgan o'rni izohlab beriladi.

2- ilova

**“Aqliy hujum” metodi uchun topshiriq.**

Oilaning to'liqligiga ko'ra turlari ....

Farzandlar soniga ko'ra turlari .....

Zamonaviy oilaning o'zi xos xususiyatlari....

Nuklear oila xususiyatlari....

3 -ilova

**Hozirgi zamon oilasining asosiy vazifalari**

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida hozirgi zamon oilasining asosiy funksiyalari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: *iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv), feliotsitologik* kabilar.

Oilaning *iqtisodiy* funksiyasi. Oilaning iqtisodiy funksiyasi uning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Oila iqtisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatga, zarur buyumlarga pul ajratish, bir necha yildan so'ng olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejab ro'zg'or yuritish er-xotinning katta tajriba, malakaga ega bo'lishlariga bog'liq.

Oilaning *reproduktiv* funksiyasi. Oilaning muhim bo'lgan funksiyalaridan yana biri bu uning *reproduktiv (jamiyatning biologik uz-*

*luksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Bu funksiyaning asosiy mohiyati inson turini davom ettirishdan iboratdir.*

Oilaning *tarbiyaviy* funksiyasi. Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir funksiyasi *tarbiyalash* funksiyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir.

Oilaning *kommunikativ* funksiyasi. Oilaning *kommunikativ* funksiyasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Oilaning *rekreativ* funksiyasi. Oilaning *rekreativ* - o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila a'zolari dam olishini tashkil etish funksiyasidir.

Oilaning *felitsitologik* funksiyasi. Hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funksiyalaridan biri uning felitsitologik funksiyasidir (italyancha «felitsite» – baxt). Shaxsiy baxtga erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi bo'lib bormoqda.

Oilaning *regulyativ* funksiyasi. Oilaning regulyativ funksiyasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro'ni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi.

Oilaning *relaksatsiya* funksiyasi. Hozirgi zamon oilasining eng asosiy funksiyalaridan yana biri relaksatsiya funksiyasidir. Bu degani oila a'zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir.



**Mavzu: Nikoh oldi omillari va nikohga yetuklik jihatlari**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti – 2s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqa)	1.1. Mavzuning nomlanishi, uning nomlanishi, maqsad va kutilayotgan natijalarini bayon etadi (1-ilova). Mashg'ulot muammoli ma'ruza shaklida borishini ma'lum qiladi. 1.2. "Klaster" usuli orqali mavzu yuzasidan bilimlarni aniqlashtiradi (2-ilova).	Tinglaydilar, yozib oladilar.  "Klaster" usuli orqali olgan bilimlarini o'rtoqlashadilar.
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqa)	2.1. Guruhni 4 ta kichik guruhga bo'ladi va mavzu bo'yicha muammoli vaziyatlarni tarqatadi (3-ilova). 2.2. Taqdimot texnologiyasi yordamida asosiy nazariy ma'lumotlarni bayon etadi(4-ilova). 2.3. Jalb qiluvchi savollar bilan murojaat etadi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatadi, har bir o'quv birligi bo'yicha xulosalar qiladi.	Taqdim etiladigan mavzu rejasi va o'zlashtirishi lozim bo'lgan tushunchalarga e'tibor qaratadilar. Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim chizma va jadvallarni o'z daftarlariga qayd etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. 3.2. O'z bilimini nazorat qilish uchun "Tushunchalar tahlili" va mavzu yuzasidan o'z o'zini nazorat qilish uchun test savollaridan foydalaniladi (5- 6-ilova). 3.3. Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi.	Tinglaydilar, fikrlaydilar. O'z bilimlarini tekshirib ko'radilar. Topshiriqni yozib oladilar.


**MAVZU: Nikoh oldi omillari va nikohga yetuklik jihatlari****Reja:**

1. Nikoh yoshi va nikoh motivlarining xususiyatlari.
2. Nikohgacha tanishish muddatlari va shartlari.
3. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar va uning oila mustahkamligiga ta'siri.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Talabalarda nikoh oldi omillari, nikohga yetuklik jihatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

**O'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar:** Talabalar bilan muammoli savol, masala va vaziyatlarni hal qilish orqali nikoh oldi omillari, nikohga yetuklik jihatlari to'g'risida tushunchalarga ega bo'ladilar. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning oila mustahkamligiga ta'siri haqida bilib oladilar.

**Klaster texnologiyasidan foydalangan holda nikoh oldi omillarini aniqlang.**



### 1-muammoli masala

**1-misol.** Nigora durkun qiz, ayni balog‘at yoshida. Uning qaddi-qomati kishining havasini keltiradi. Lekin nimagadir o‘rtoqlari, kursdoshlari undan nariroq yurishga harakat qilishadi. Chunki u faqat o‘zi haqida, o‘zini qiziqtirgan muammolar haqida gapirishni yaxshi ko‘radi, boshqalarning fikrlari, istaklari uni qiziqtirmaydi. Agar unga biron muammo bilan murojat qilishsa, ularni tinglash va yo‘l yo‘riq ko‘rsatish o‘rniga, ularning muammosi chetda qolib, o‘zining muammosi haqida gapiradi.

**2-misol.** Karim axborot texnologiyalari kollejini tamomladi, ammo ishga borgan joyida undan kolleжда o‘qiganlarini emas, balki programmalar tuzishni, kompyuterga texnik xizmat ko‘rsatishni talab qilishdi. U esa bu narsalarni hali u darajada o‘zlashtirib ulgurmagan edi. Shuning uchun o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha ishlay olmadi. Nihoyat sotuvchiga yordamchi bo‘lib ishga kirdi.

**Sizning-cha, mazkur misolda bayon etilgan holatlarda yetuklikning qaysi jihatlari yetishmaydi? O‘z fikringizni asoslang.**

### 2-muammoli savol

Ayrim qizlar oila qurishar ekan, muhabbat bilan baxtli yashab bo‘lmaydi, muhabbat o‘tkinchi havas, deb hisoblaydilar va yigitning ota-onasi qayerda ishlashi, mashinasi borligi, uy-joyi dabdabali ekanligiga qiziqadilar va shunday sharoiti bo‘lgan yigitga turmushga chiqishga harakat qiladilar. **Bu holatni qanday izohlaysiz?**


### 3-muammoli vaziyat

Tabiiyki barcha yigit qizlar mukammal oila qurishni, oilaviy hayotda baxtli bo‘lishni xohlaydilar, lekin aksariyat hollarda hayotda kutganlaridek bo‘lmaydi. **Bu holatni siz qanday izohlaysiz?**

### 4-muammoli vaziyat

Odamlar sevgi asosida qurilgan oilalar baxtli bo‘ladi deb hisoblashadi. Freyd bu haqida sevgi odamzodni hayvonot olamidani sug‘urib olgan kuchdir deydi. Sevgi insonga qudratli kuch ato etadi, uni go‘zallikni idrok etishiga, cho‘qqilarni zabt etishga undaydi. Shunday bo‘lishiga qaramay statistika ma‘lumotlariga qaraganda eng ko‘p ajralishlar sevgi motivi asosida qurilgan oilalarga to‘g‘ri kelar ekan.

**Buni siz qanday izohlaysiz? O‘z fikringizni asoslang.**



**“Tushunchalar tahlili” jadvalini to‘ldiring.**

<b>Tushunchalar</b>	<b>Mazmuni</b>
Nikoh oldi omillari	
Motiv	
Nikohga kirish motivlari	
Psixologik yetuklik	
Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar	
Sevgi asosida oila qurish	
Stereotip asosidagi oila	
Moddiy yoki o‘zga manfaatdorlik asosidagi oila	

**“Tushunchalar tahlili” jadvali**

**Uslubning mohiyati.** Ushbu uslub o‘tilgan o‘quv predmeti yoki bo‘lim barcha mavzularini o‘quvchilar tomonidan yodga olish, biron bir mavzu bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talabalarni baholay olishga yo‘naltirilgan.

**Uslubning maqsadi.** O‘quvchilarni mashg‘ulotda o‘tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, kursdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o‘z bilimlarini bir tizimga solishga o‘rgatish.

**Mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladigan mavzular**

1. Nikoh oldi omillari va nikohga yetuklik jihatlari.
2. Nikoh motivlari va uning oila mustahkamligiga ta’siri.
3. Yoshlarda psixologik yetuklikning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi.
4. Nikoh yoshi va nikoh motivlarining xususiyatlari.
5. Sharq mutafakkirlarining oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi qarashlari.

### **Mavzu yuzasidan o‘z o‘zini nazorat qilish uchun test savollari**

1. G‘.B.Shoumarovning “Oila psixologiyasi” kitobida nikoh motivlarini necha turga bo‘ladi?

- A)3 turga;
- B)2 turga;
- C)5 turga;
- D) 4 turga.

2. G‘.B. Shoumarov o‘zining “Muhabbat va oila” kitobida oilaning tinch-totuv yashashida o‘zaro qovushishni necha turga bo‘lib o‘rganadi?

- A) 3 turga;
- B) 5 turga;
- C) 4 turga;
- D) 2 turga.

3.Hozirgi davrda balog‘atga yetish davri necha yoshga to‘ri kelmoqda?

- A) 12-13;
- B) 16-18;
- C) 13-15;
- D) 14-15.

4. Nikohga yetuklik jihatlari qaysi javobda to‘liq keltirilgan?

A) jismoniy, jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, psixologik yetuklik;

B) jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy yetuklik;

C) jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy yetuklik;

D) etnik, jinsiy, etnopsixologik, ma’naviy.

5. Oila kodeksining nechanchi moddasida yosh kelin-kuyovlar nikohgacha ixtiyoriy tarzda tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlangan?

- A) 17-moddasida;
- B)18-moddasida;
- C)19-moddasida;
- D) 20-moddasida.

**Mavzu: Oilaviy munosabatlar psixologiyasi**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi modeli**


<i>Tabalalar soni: 50-60 nafar</i>	<i>Ma'ruzaga ajratilgan vaqt: 2 soat</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	<i>Ma'lumotli ma'ruza</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Oilaviy munosabatlar attraksiyasi.</li> <li>2. Sheriklik munosabatlarining dinamikasini ifodalovchi "uch filtr" nazariyasi.</li> <li>3. Ishq-muhabbatga asoslangan munosabatlarning turlari.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarni oiladagi emotsional munosabatlarga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
1) Oilaviy munosabatlar attraksiyasi xususidagi nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish.	Oilaviy munosabatlar attraksiyasi haqidagi tasavvurlar shakllanadi.
2) Sheriklik munosabatlarining dinamikasini ifodalovchi "uch filtr" nazariyasi bilan tanishtirish.	Sheriklik munosabatlarining dinamikasini ifodalovchi "uch filtr" nazariyasi haqida tasavvurlarga ega bo'ladilar.
3) Ishq-muhabbatga asoslangan munosabatlarning turlari va ularning oila mustahkamligiga ta'sirining psixologik asoslarini tushuntirib berish.	Ishq-muhabbatga asoslangan munosabatlarning turlari haqidagi ma'lumotlarni bilib oladilar.
4) Mavzuning asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatish.	Mavzuning asosiy tushunchalarini o'zlashtiradilar.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, "Aqliy hujum" usuli, "Sinkveyn", "FSMU", "FAKT", "Blits-so'rov" texnologiyalari
<i>O'qitishshakli</i>	Ma'ruza, ommaviy
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya

## Mavzu: Oilaviy munosabatlar psixologiyasi Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi


Ish bosqichlari va vaqti -2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10)	<p>1.1. Talabalarga "Aqliy hujum" usuli orqali "Oilaviy munosabatlar deganda nimalarni tasavvur qilaszlar?", - degan savol bilan murojaat qiladi.</p> <p>1.2. Imkon darajasida ko'proq talabalarning fikr-mulohazalarini eshitadi.</p> <p>1.3. Mavzuning nomlanishi, reja, maqsad va kutilayotgan natijalarini bayon etadi (1-ilova).</p>	<p>O'z bilimlariga tayangan holda o'qituvchining savollariga javob beradilar.</p> <p>Aksariyat talabalar tinglaydilar, fikrlaydilar.</p>
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqqa)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini tarqatadi, uning rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi (1-, 2- ilovalar).</p> <p>2.2. Ma'ruza bo'yicha "Sinkveyn" usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi topshiriqni taqdim etadi: "Oiladagi emotsional munosabat" (3-ilova).</p> <p>2.3. Taqdimot texnologiyasi yordamida mavzuning birinchi rejasi asosida nazariy ma'lumotlarni bayon qiladi va talabalarning bilimlarini mustahkamlash uchun "FAKT" texnologiyasini qo'llaydi (4-, 5-ilovalar).</p> <p>2.4. Mavzuning ikkinchi va uchinchi rejasi bo'yicha nazariy ma'lumotlarni bayon qiladi va "FSMU" texnologiyasi orqali talabalarning nazariy bilimlari mustahkamlanadi (6-8- ilovalar).</p>	<p>Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim chizma va jadvallarni o'z daftarlariga qayd etadilar.</p>
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni shakllantiradi.</p> <p>3.2. "Blits so'rov" orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi (9-ilova).</p>	<p>Tinglaydilar, fikrlaydilar.</p> <p>Fikr almashadilar.</p>



**«Qanday?» diagrammasini to'ldiring.  
Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va  
«Qanday?» savoli orqali muammo hal qilinadi.**



**Klaster usulidan foydalangan holda oilaning  
asosiy vazifalarini aniqlang.**



**“Bilishni xohlayman” jadvalini to‘ldiring.**

<i>t/r</i>	<i>Mavzular</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni xohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>
1.	Hozirgi zamon oilasining turlari.			
2.	Oilaning asosiy vazifalari.			
3.	Oilaning to‘liqligiga ko‘ra turlari.			
4.	Oilaning bo‘g‘inlariga ko‘ra turlari.			
5.	Oilaning yoshiga ko‘ra turlari.			

**Nazorat uchun savollar:**

- Hozirgi zamon oilasining qanday o‘ziga xos xususiyatlarini bilasiz?
  - Nuklear oilaning an’anaviy oiladan qanday ustunliklari bor?
  - Oilaning asosiy vazifalari haqida tushuncha bering.
  - Oilaning reproduktiv vazifasi nimadan iborat?
  - Oilaning kommunikativ funksiyasi deganda nimani tushunasiz?
  - Oilaning relaksatsiya funksiyasining oila mustahkamligiga ta’siri qanday?
    - Oilaning tarbiyaviy funksiyasi haqida tushuncha bering.
    - Oilaning har bir funksiyasi jamiyat va shaxs uchun qanday ahamiyatga ega?

**Mavzu yuzasidan o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun test savollari**

1. Oilaning reproduktiv vazifasi nimadan iborat?
  - a) jamiyatning biologik uzluksizligini ta’minlash, bolalarni dunyoga keltirish;
  - b) oila a’zolarining o‘zaro muloqot va o‘zaro tushunishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish;
  - d) oilani mablag‘ bilan ta’minlash;
  - e) dam olishni tashkil etish.

2. Oilaning kommunikativ vazifasi nimadan iborat?
- a) oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirish;
  - b) jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish;
  - d) oilani mablag' bilan ta'minlash;
  - e) dam olishni tashkil etish.
3. Oilaning rekreativ vazifasi nimadan iborat?
- a) o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish;
  - b) bir-birining salomatligini mustahkash;
  - d) oila a'zolari dam olishini tashkil etish;
  - e) barcha javoblar to'g'ri.
4. Oilaning iqtisodiy vazifasi nimadan iborat?
- a) oila iqtisodini yuritish, byudjeti, daromadini rejali sarflash;
  - b) kundalik xarajatga, zarur buyumlarga pul ajratish;
  - d) bir necha yildan so'ng olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejab ro'zg'or yuritish;
  - e) barcha javoblar to'g'ri.
5. Hozirgi zamon oilasining asosiy vazifalari qaysi bandda to'liq keltirilgan?
- a) tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ;
  - b) regulyativ (boshqaruv), feliotsitologik;
  - d) iqtisodiy, reproduktiv;
  - e) barcha javoblar to'g'ri.

**Mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Yangi davr oilasi tipologiyasi.
2. Hozirgi zamon oilasining turlari va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Oilaning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni.
4. Oilaning asosiy vazifalari.

**Mavzu: Nikoh oldi omillari va nikohga yetuklik jihatlari**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi modeli**

<b>Talabalar soni:</b> 50-60 nafar	<b>Ma'ruzaga ajratilgan vaqt:</b> 4 soat
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	<b>Ma'lumotli ma'ruza</b>
<b>Ma'ruza rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Nikoh oldi omillari.</li> <li>2. Nikohga yetuklik jihatlari</li> <li>3. Yoshlarda psixologik yetuklikning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi</li> <li>4. Nikoh yoshi va nikoh motivlarining xususiyatlari,</li> <li>5. Nikohgacha tanishish muddatlari va shartlari</li> <li>6. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar va uning oila mustahkamligiga ta'siri.</li> </ol>
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Talabalarda nikoh oldi omillari, nikohga yetuklik jihatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
1. Talabalarga nikoh oldi omillari haqida ma'lumot berish	Talabalar nikoh oldi omillari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
2. Nikoh yetuklik jihatlari va ularning xususiyatlari bilan tanishtirish	Nikoh yetuklik jihatlari va ularning xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar, o'zlashtiradilar.
3. Oila qurishda psixologik yetuklikning xal qiluvchi ahamiyatga egaligi haqida tushuncha berish	Oila qurishda psixologik yetuklikning xal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi va oila mustahkamligini ta'minlashdagi o'rmini bilib oladilar.
4. Talabalar bilan muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali nikoh oldi omillari va nikoh motivlari jihatlari to'g'risida tushunchalar berish	Talabalar bilan muammoli savol, masala va vaziyatlarni hal qilish orqali nikoh oldi omillari va nikoh motivlari xususiyatlari to'g'risida tushunchalarga ega bo'ladilar.
5. Talabalar bilan muammoli savol, masala va vaziyatlarni hal qilish orqali nikoh yoshi va nikoh motivlarining xususiyatlari haqida tasavvur shakllantirish	Talabalar bilan muammoli savol, masala va vaziyatlarni hal qilish orqali nikoh yoshi va nikoh motivlarining xususiyatlari haqida tasavvur shakllantirish.

6. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning oila mustahkamligiga ta'siri haqida tushuncha berish	Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar va ularning oila mustahkamligini ta'minlashdagi o'rnini bilib oladilar.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, "Klaster", "Aqliy xujum", "Blits so'rov", faollashtiruvchi savollar, "Muammoli vaziyatlar tahlili", "Tushunchalar tahlili".
<i>O'qitish shakli</i>	Ma'ruza, ommaviy, guruhli
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya

**Mavzu: Nikoh oldi omillari va nikohga yetuklik jihatlari**  
**Ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti – 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqa)	1.1 Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova).	Tinglaydilar, mavzu nomini yozib oladilar
	1.2. "Klaster" usuli orqali nikoh oldi omillari haqidagi dastlabki bilimlarni aniqlashtiradi (2-ilova).	Mavzu yuzasidan o'rtoqlashadilar.
2-bosqich. Asofiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqa)	2.1 Mavzu rejasining birinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi (3-ilova).	Yozadi, savollarga javob beradilar.
	2.2 Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi (4-ilova).	Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar.

3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqqa)	3.1. Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi, yakun yasaydi. 3.2. Mavzuni mustahkamlash uchun berilgan “Blits-so‘rov” savollari ustida ishlanadi(5-illova). Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e‘lon qiladi va o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi (6-illova).	Tinglaydilar, fikrlaydilar. Savollarga javob beradilar.
---	---	---

1- ilova

### MAVZU: Nikoh oldi omillari va nikohga yetuklik jihatlari

#### *Reja:*


1. Nikoh oldi omillari.
2. Nikohga yetuklik jihatlari.
3. Yoshlarda psixologik yetuklikning hal qiluvchi ahamiyatga ega-ligi.

***O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:*** Talabalarda nikoh oldi omillari, nikohga yetuklik jihatlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

***O‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar:*** Talabalar bilan muammoli savol, masala va vaziyatlarni hal qilish orqali nikoh oldi omillari, nikohga yetuklik jihatlari to‘g‘risida tushunchalarga ega bo‘ladilar. Oilaviy hayotga tayyor bo‘lmay turib oila qurish salbiy oqibatlarga olib kelishini bilib oladilar.


## Klaster usulidan foydalangan holda nikoholdi omillarini aniqlang.

### Klaster



### Mavzu yuzasidan tayanch soʻzlar:

**Mavzu yuzasidan tayanch soʻzlar:** nikoh oldi omillari, ijtimoiy yetuklik, iqtisodiy yetuklik, psixologik yetuklik, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar



### «Blits-soʻrov» savollariga javob bering.

(jadval soʻrov vaqtida toʻldiradi)

#### Savollar

#### Javoblar

1. Nikoh oldi omillari deganda nimani tushunasiz?
2. Oilaviy hayotga yetuklikning qanday jihatlarni bilasiz?
3. Oilaviy hayotga tayyorlash nima uchun zarur?
4. Jinsiy yetuklik haqida tushuncha bering.
5. Psixologik yetuklik nima?



## **Mavzu: Oilaviy munosabatlar psixologiyasi**

### **Reja:**

1. Oilaviy munosabatlar attraksiyasi.
2. Sheriklik munosabatlarining dinamikasini ifodalovchi “uch filtr” nazariyasi.
3. Ishq-muhabbatga asoslangan munosabatlarning turlari.

***O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:*** Talabalarni oiladagi emotsional munosabatlarga oid nazariy ma’lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.

***O‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar:*** Talabalar oiladagi emotsional munosabatlar xususidagi nazariy bilimlar bilan qurollanadilar va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarga ega bo‘ladilar.

### 2- ilova

## **Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar**

**Attraksiya** – inglizcha attraction–tortilish, intilish so‘zlaridan olingan bo‘lib, u bir insonning ikkinchi bir insonga nisbatan his qiladigan ijobiy munosabatini anglatadi.

**Eros** – bu romantizm va hissiy mayllarga asoslangan muhabbat bo‘lib, undan ko‘zlangan asosiy maqsad – sevgilisining visoliga erishish va u bilan yaqin, jinsiy munosabatda bo‘lishdir.

**Mania**– bir tomonning ikkinchi tomon mehri va muhabbatiga erishishi uchun hamisha xavotir va intiqlik bilan bog‘liq bo‘lgan talabchan, intiq hissiyotdir.

**Lyudis**– o‘ziga qaratilgan, xudbinlarcha muhabbat, bunda sevgiga erishmoqchi bo‘lgan shaxs nima qilib bo‘lsa ham suyuqlisining visoliga erishmoqni ko‘zlaydi.

**Storge**– do‘stona, mustahkam va samimiy hisga asoslangan bir-biriga yaqin, anchadan buyon tanish bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi sevgi.


**Agape**– biror obyektga nisbatan intiqlik, sabr-qanoat bilan boshdan kechirilayotgan ilohiy sevgidir.

**Pragma**– faqat shu inson bilan yashagandagina hayotdagi barcha maqsad-muddaolariga erishish mumkinligini anglagan, hayotiy, aniq mo‘ljalli, shaxsiy xudbinlikdan xoli bo‘lgan toza sevgidir.


## SINKVEYN TEXNOLOGIYASI

<b>1-QATOR:</b> tushuncha	<b>Oiladagi emotsional munosabat</b>
<b>2-QATOR:</b> 2 ta muhim sifati	
<b>3-QATOR:</b> oila mustahkamligiga ta'siri	
<b>4-QATOR:</b> shaxsiy fikr	
<b>5-QATOR:</b> misol	


### Oilaviy munosabatlar attraksiyasi



**Yoqtirib qolishga turtki bo'luvchi ijtimoiy-demografik xususiyatlar**




## Yoqtirib qolishning tashqi yoqimtoylikka bog‘liqligi



6- ilova


### Sheriklik munosabatlarning dinamikasini ifodalovchi “uch filtr” nazariyasi.



**“FAKT” TEXNOLOGIYASI**  
**Oilaviy munosabatlardagi muammo “FAKT” texnologiyasi**  
**asosida izohlab bering.**

	Er-xotin orasidagi simpatiya
<b>F-fikr</b>	
<b>A-afzalliklari</b>	
<b>K-kamchiliklari</b>	
<b>T-turlari</b>	

**Sheriklik munosabatlarning dinamikasini ifodalovchi**  
**“uch filtr” nazariyasi**



**Ishq-muhabbatga asoslangan munosabatlarning turlari.****Romantik sevgi**

Ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi. Olimlarning fikricha, romantik sevgi – eng kam anglanadigan, odamning biologik ehtiyojlari bilan bog'liq munosabatlardir. Bunday munosabatlarning eng muhim jihati shundaki, ikkala tomon ham bir-birlaridan o'zlari ko'rishni xohlagan sifatlarni qidiradi va ko'radi. Shu bois ham ko'pincha romantik his-tuyg'ularga asoslangan munosabatlarning umri qisqa bo'ladi, chunki real xulq-atvor bilan ideal tasavvurlar o'rtasida ziddiyat, nomutanosiblik paydo bo'lishi mumkin.

**L. Kameron-Benjler (1993) ning fikricha, romantik sevgi hissi rivojlanishining 7 bosqichi bo'lib, unga quyidagilar kiradi:**

**1. O'ziga jalb etish** – yangi tanishlarning bir-birlariga noverbal belgilar orqali qiziqishi borligini bildirish. Bu davrda sheriklar dilidagi istak va xohishlarini yangi tanishgan odamida mavjudligini tahlil etadi.

**2. Mashg'ullik yoki rom bo'lib qolish.** Bu bosqichda tanishib ulgurgan yoshlar davomli uchrashuvlar natijasida bir-birlaridagi ijobiy sifatlarni anglab, bir-birlariga ko'nika boshlaydi.

**3. Ko'nikish** – munosabatlardagi o'ziga xos yangilikning kamayib borishidir. Endi boshida o'zgacha joziba kasb etgan tashqi ko'rinish, xusn, qaddi-qomat kabilar odatiydek idrok etilib, hissiyotlar tobora kamayib boradi.

**4. Kutish** – munosabatlarning muayyan bosqichida xayolfantaziyadagi ideal obraz bilan real, kundalik hayotda tobora namoyon bo'lib borayotgan asl nusxa o'rtasida ayrim ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar ko'zga tashlanishi bilan boshlanadi.

**5. Ko'ngil qolish** – bu shunday bosqichki, unda hayajonli ishq-muhabbat hislari o'rnini alam, g'azab, aldanganlikni anglash egallay boshlaydi, sherik to'g'risidagi ijobiy obraz salbiy obraz bilan almashib boradi. Ko'pchilik yoshlar ayni shu bosqichda bir-birlaridan ajralib qoladilar.

**6. Haddan oshish yoki munosabatlar chegarasining darz ketishi** – bosqichida sheriklardan biri (ba'zan ikkalasi bir vaqtda) munosabatlarga chek-chegara qo'yish vaqti kelganligini anglab qoladi.

**7. Munosabatlarning tugashi** – bir-birlari bilan boshqa sira yuz ko'rinishmaslik bilan bog'liqqaror chiqarishdan boshlanadi. Ayrimlar sherigining aybdor emasligini bilib tursa-da, munosabatlarni tugatgisi kelaveradi, ayrimlar esa bir-biridan ko'ngilsiz bo'lib qolgan bo'lsalar-da, birgalikda yashayveradi.

**J. Li sevgiga asoslangan munosabatlarning  
6 tipli munosabatlar nazariyasini yaratgan:**

**Eros** – bu romantizm va hissiy mayllarga asoslangan muhabbat bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad – sevgilisining visoliga erishish va u bilan yaqin, jinsiy munosabatda bo'lishdir.

**Mania**– bir tomonning ikkinchi tomon mehri va muhabbatiga erishishi uchun hamisha xavotir va intiqlik bilan bog'liq bo'lgan talabchan, intiq hissiyotidir.


**Lyudis**– o'ziga qaratilgan, xudbinlarcha muhabbat, bunda sevgiga erishmoqchi bo'lgan shaxs nima qilib bo'lsa ham suyuklisining visoliga erishmoqni ko'zlaydi.

**Storge**– do'stona, mustahkam va samimiy hisga asoslangan bir-biriga yaqin, anchadan buyon tanish bo'lgan odamlar o'rtasidagi sevgi.

**Agape**– biror obyektga nisbatan intiqlik, sabr-qanoat bilan boshdan kechirilayotgan ilohiy sevgidir.

**Pragma**– faqat shu inson bilan yashagandagina hayotdagi barcha maqsad-muddaolariga erishish mumkinligini anglagan, hayotiy, aniq mo'ljalli, shaxsiy xudbinlikdan xoli bo'lgan toza sevgidir.





### Rus olimi A.I. Antonovning ta'kidlashicha

Eng mustahkam nikohga sabab bo'lgan munosabatlarda ikkala tomon ham shaxs sifatida tobora takomillashib, sayqal topib, ularda o'zaro mehrga, bir-biriga yordam berishga ishtiyiq ortib boraveradi. Ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha olimlarning ta'kidlashlaricha, er-xotinlik aloqalari yetuk inson uchun eng ahamiyatli va hayotiy zarur bo'lgan munosabatlardir.

**E.Shostrom (1994) er bilan xotin o'rtasidagi "ishqiy" pozitiv munosabatlarning quyidagi ko'rinishlarini bayon etadi:**

***Bir-biriga bog'lanib qolish yoki o'zaro g'amxo'rlik qilish hissi.*** Bu shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, er-xotin boshqa bir insonga shunga o'xshash yaqin munosabatni his etmay qoladi.

***Do'stlik*** – er va xotinning bir-birlarida eng nodir sifatarni, jumladan, o'ziga xoslik va individuallikni tan olishni nazarda tutadigan hissiyot.

***Eros*** – sevgining romantik ko'rinishi bo'lib, er-xotinning bir-biriga nisbatan hissiy-jinsiy mayllarining kuchini belgilaydi.

***Empatiya***- erning yoki xotinning o'z turmush o'rtog'iga doimiy g'amxo'rliqi, uni tushunishi va kerak bo'lsa, altruistik fidoiyligini baholovchi hisdir.

***O'zligini sevish, qadrlash*** – bir tomondan er-xotinning har qanday sharoitda o'zida eng afzal jihatlarni anglay olish va boshqa tomondan, kerak bo'lsa, yori tufayli o'z xohish-istaklarini jilovlay olish, fidoiylikni namoyon qilishga imkon beruvchi hissiyot.

Er va xotin o'rtasidagi salbiy munosabatlarga asos bo'luvchi hissiyotlarga olimlar quyidagilarni

kiritadilar:

**achchiqlanish** – oilaviy hayotda ko'p uchraydi, chunki u o'zaro g'amxo'rlik va bog'liqlik

**aybdorlik** – o'zining qilmishi uchun o'ch olishday gap, ko'pincha bu hissiyot ataylab namovon etiladi;

**arazlash** – turmush o'rtog'idan o'ch olish maqsadida namoyon etiladigan his-tuyg'u;

**nafrat**– turmush o'rtog'iga go'yoki dushmaniga qaraganday muomala qilish va bu yo'lda ba'zan uzoq vaqt gaplashmay qo'yish yoki ataylab o'zini

**tanqid qilish** – qo'rqoqlikka o'xshaydi, aniq munosabatlarning xarakterini namoyon etishga imkon bermaydi, Shostromning fikricha, bu hissiyot achchiqlanishga o'tgani ma'qul;

**turmush o'rtog'idan yiroqlashish, ketib qolish** – bu ham ma'lum ma'noda bir-birini nazoratda ushlashning bir ko'rinishi, lekin vaziyatni aniq oydinlashtirib olishga xalaqit beradi.

**befarqlik** – umuman munosabatlarni yashiruvchi his bo'lgani uchun u aloqalarning yomonlashib ketishini tezlashtiradi, hattoki, bunda psixoterapevtik yordam berish ham mushkul bo'lib qoladi.

### FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga, baholashga hamda bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Ushbu texnologiya o'quvchilarni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

### FSMU jadvali

<b><i>Bir-biriga bog'lanib qolish yoki o'zaro g'amxo'rlik qilish hissi. Bu shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, er-xotin boshqa bir insonga shunga o'xshash yaqin munosabatni his etmay qoladi.</i></b>	
F- fikringizni bayon eting;	
S- fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;	
M- ko'rsatilgan sababga biror misol keltiring;	
U- fikringizni umumlashtiring.	

**“Blits-so‘rov” savollari**

**Blits-so‘rov** – o‘quvchilarning eslab qolgan narsalarini yana bir marta aytilganlarni qaytarib aytishi bo‘lib, biror jarayonning ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtirishga, bu jarayon haqida guruh a‘zolari va boshqa guruhlara‘zolarining fikrlari bilan tanishishga imkon beradi.

Harakatlar ketma-ketligi avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab,so‘ngra o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar fikri bilan tanishishga yordam beradi.

«**Blits-so‘rov**» texnologiyasini o‘tkazish bosqichlari.

O‘qituvchi agar o‘quvchilar bilmasa o‘zi tushuncha beradi, ularni sharhlab beradi.

<i>t/r</i>	<i>Savol</i>	<i>Javob</i>
1.	Attraksiya nima?	
2.	Yoqtirib qolishga ta‘sir etuvchi omillarni ayting	
3.	Sevgiga asoslangan munosabatlarning turlarini batafsil yoritib bering	
4.	Er-xotin orasidagi salbiy munosabatlarga asos bo‘luvchi omillarni sanab bering	

**Mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Muhabbat psixologiyasi.
2. Oilaviy munosabatlar attraksiyasi.
3. Ota-ona–bola munosabatlari tizimi.
4. Oilaviy munosabatlarpixologiyasi.
5. Oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos jihatlarining empirik tadqiqi.

**Mavzu: Oilaviy munosabatlar psixologiyasi**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi modeli**

<b>Talabalar soni:</b> 50-60 nafar	<b>Ma'ruzaga ajratilgan vaqt:</b> 2 soat
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	<b>Ma'lumotli ma'ruza</b>
<b>Ma'ruza rejai</b>	1. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Oilada muloqot 2. Nikoh modellari va er-xotin munosabatlari. 3. Er-xotin munosabatlarining o'ziga xosligi.
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Talabalarni oiladagi shaxslararo munosabatlar va muloqot muammosiga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
1) Oilaviy munosabatlar psixologiyasi va oilada muloqot xususidagi nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish.	Oilaviy munosabatlar psixologiyasi va oilada muloqot haqidagi tasavvurlar shakllanadi.
2) Nikoh modellari va er-xotin munosabatlarining o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirish.	Nikoh modellari va er-xotin munosabatlarining o'ziga xos jihatlari haqida aniq tasavvurlarga ega bo'ladilar.
3) Er-xotin munosabatlarining o'ziga xosligini tushuntirib berish.	Er-xotin munosabatlarining o'ziga xosligi haqidagi ma'lumotlarni bilib oladilar.
4) Mavzuning asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatish.	Mavzuning asosiy tushunchalarini o'zlashtiradilar.
<b>O'qitish usullari va texnika</b>	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, "3x4" usuli, "Zinama-zina", "Moychechak", "Kesma chiziq" texnologiyalari
<b>O'qitish shakli</b>	Ma'ruza, ommaviy
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya
<b>O'qitish shart-sharoitlari</b>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya

**Mavzu: Oilaviy munosabatlar psixologiyasi**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti – 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqqa)	1.1. “3x4” usuli orqali “Oiladagi emotsional muloqot” haqida talabalar-ni tushunchalari aniqlanadi (1-ilova). 1.2. Imkon darajasida ko'proq talabalar-ni fikr-mulohazalarini eshitadi. 1.3. Mavzuning nomlanishi, reja, maqsad va kutilayotgan natijalarini bayon etadi (2-ilova).	O'z bilimlariga tayangan holda o'qituvchining savoliga javob beradilar. Aksariyat talabalar tinglaydilar, fikrlaydilar. Mavzuning nomlanishi va rejalarni daftarlariga qayd etadilar.
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqqa)	2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini tarqatadi, uning rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi (2-, 3- ilovalar). 2.2. Taqdimot texnologiyasi yordamida mavzuga oid nazariy ma'lumotlarni bayon qiladi (4-6-ilovalar). 2.3. Talabalarning bilimlarini mustahkamlash uchun “Zinama-zina” va “Moychechak” texnologiyalari qo'llaniladi va har bir o'quv rejasi bo'yicha xulosalar qilinadi (7-8-ilovalar)	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim chizma va jadvallarni o'z daftarlariga qayd etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni shakllantiradi. 3.2. “Kesma chiziqlar” texnologiyasi orqali talabalarning mavzu bo'yicha egallagan bilimlari aniqlanadi (9-ilova).	Tinglaydilar, fikrlaydilar. Fikr almashadilar.

### “3x4” texnologiyasi

Ushbu texnologiya talabalarning mavzu yuzasidan dastlabki tasavvurlarini aniqlashga xizmat qiladi. Texnologiyani qo'llash uchun talabalar 3 ta guruhga bo'linadi va quyidagi tushunchaga sharh berishlari lozim bo'ladi.

**Oiladagi emotsional muloqot bu**

- 1.
- 2.

### Mavzu: Oilaviy munosabatlar psixologiyasi

#### Reja:

1. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Oilada muloqot.
2. Nikoh modellari va er-xotin munosabatlari.
3. Er-xotin munosabatlarining o'ziga xosligi.

***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** Talabalarni oiladagi shaxslararo munosabatlar va muloqot muammosiga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.


***O'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar:*** Talabalar oiladagi shaxslararo munosabatlar va muloqot xususidagi nazariy bilimlar bilan qurollanadilar va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarga ega bo'ladilar.

### Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar


Nikoh modeli, ota-ona oilasi, opa-singil, aka-inilik munosabatlariga asoslangan oila modeli, oiladagi muloqot, muloqot madaniyati, muloqotdagi to'siqlar.



## Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Oilada muloqot



### Muloqot jarayonida yuzaga keladigan to'siqlar



**Psixologlar muloqotning o'ziga xos uch xil kommunikativ pozitsiyasini farolavdilar. Bular:**

«Ota yoki ona» pozitsiyasida bo'lish – bu o'zining boshqalardan ustunligini anglash, rag'batlantirish va jazolash huquqiga egalikni his qilish demakdir.

«Katta» pozitsiyasi odamning atrofidagilar bilan teng darajada muloqotda bo'la olishni bildiradi. Atrofdagilarga o'z hukmronligini ham o'tkazmaydi yoki o'ziga nisbatan «ma'qullovchi» munosabatni ham kut-

«Bola» pozitsiyasida odam xafagarchilikka yuqori sezgirlikni, ko'ngli bo'shlik, oson ishonuvchanlik, o'yinqaroqlik, inijlik, boshqalardan mehr olishni istash, sezishni, kuchliroq odam tomonidan panohtutishni va shu kabilarni namoyon qiladi.


## Nikoh modellari va er-xotin munosabatlari

### Nikoh modeli

**Ota-ona oilasi.** *Z.Froydning* psixanalitik nazariyasi muvofiqda keladi. Unga muvofiq, bola o'zi katta bo'lgan oilasidagi o'z jinsiga mos ota yoki ona obraziga o'zini identifikatsiya qilib, hayoti mobaynida ko'rgan-kechirganlarini xatti-harakatlarida takrorlaydi, qarama-qarshi jins vakili bo'lmish ota-onaning obrazi esa turmush o'rtog'ini tanlashni belgilaydi. Agar ushbu obraz ijobiy bo'lgan bo'lsa, masalan, qiz bola uchun otasi ideal, namunali bo'lsa, kelajakda shu qiz o'z turmush o'rtog'i bilan kelishib yashashga moyil bo'ladi.

**Opa-singil, aka-ukalarning er-xotin munosabatlari**ga asoslangan nikoh oila modeli. *A.Adler* g'iyahida ta'sirida ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, er-xotin aloqalari mustahkam va barqaror bo'lishi uchun ikkasi o'z munosabatlari jarayonida akalari yoki opa-singillari bilan bo'ladigan hamkorlik, liderlik, hukmronlik, mas'uliyat, g'amxo'rlik, tobelik kabi qator munosabatlarni ro'yobga chiqarishlari lozim (sibling yondashuv). Bu aloqalarning bir ko'rinishi shundayki, unda er va xotin bir-biriga akaday, singilday u yoki bu munosabatlardagi ehtiyoqlarini to'ldirib

## Er-xotin munosabatlarning o'ziga xosligi



## «Zinama - zina texnologiyasi»

Ushbu texnologiya orqali nikoh modellarining o'ziga xos jihatlarini sharhlab bering.

Ota-ona modelining o'ziga xos jihatlarini sharhlang.

Opa-singil, aka-inilik munosabatlariga asoslangan oila modelining o'ziga xosligi nimada?

Sizning o'zingiz qaysi nikoh modelini afzal ko'rgan bo'lar edingiz?


Fikringizni misollar bilan izohlang.

### “Moychechak” usuli

Bu metodda moychechak markaziga muammo qo‘yiladi. O‘quvchilar muammoning yechimini ma‘lum bir fikrlarni alohida-alohida keltirib, ularni umumlashtirish asnosida hal qiladilar. Metod orqali talabalarda mustaqil fikrlash ortadi. Shuningdek, mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarning shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini gul shaklida ifodalashga undaydi.

#### Usulni o‘tkazish tartibi:

- O‘quvchilar tayyor matn bilan tanishib, ularni o‘rganib chiqadilar;
- so‘ng har bir guruhga moychechak yaproqlari tarqatiladi;
- doskada tayyor moychecha g‘unchalari rasmlari ilingan bo‘ladi ;
- matn asosida har bir guruh o‘quvchilari moychechak yaproqlariga tegishli fikrlarni yozib boradilar.
- fikrlar yozilgan yaproqlar orqali har bir guruh o‘z gulini o‘stiradi, bunda fikrlar moychechak markazidagi qay darajada ochib berishini hisobga olinadi.



### “KESMA CHIZIQLAR” TEXNOLOGIYASI

t/r	Muloqotdagi to‘siqlar	Chiziq	Ta’riflar
	<b>Psixologik to‘siqlar</b>		Bunday to‘siqlar gapirayotgan odam o‘zi bayon qilayotgan fikrning motivini yetarlicha anglay olmaganda yoki u atayin ularni (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotganda yuzaga keladi.
	<b>Vaziyatli to‘siqlar</b>		Odatda suhbatdoshini tushunmaganlik tufayli, uning mazkur jumlasini qanday ma’noda aytilgani, u qanday fikrni ilgari surayapti, nimani nazarda tutayapti, nimaga olib boradi va shu kabi mulohazalarga borish tufayli yuzaga keladi.
	<b>Mazmuniy to‘siqlar</b>		Bu suhbatdoshlarning bir xil vaziyatni turlicha tushunishlari, unga turlicha yondashishlari bilan bog‘liq bo‘lgan to‘siq.
	<b>Motivatsion to‘siqlar</b>		Bu sherigiga ma’qul tushmay qolish, tushunilmay qolishdan qo‘rqish, u tomondan inkor etilishdan qo‘rqish bilan bog‘liq o‘ziga xos ichki psixik tormozdir.

**Mavzu: Yosh oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi modeli**

<b>Talabalar soni:</b> 50-60 nafar	<b>Mashg'ulotga ajratilgan vaqt:</b> 2 soat
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	<b>Ma'lumotli ma'ruza</b>
<b>Ma'ruza rejasi</b>	1. Yosh oila va uning xususiyatlari. 2. Yosh oilada yuzaga keladigan muammolar. 3. Yoshlarni nikoh oldi ko'rikdan o'tkazish va nikohning mustahkamligi.
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Talabalarda yosh oilaning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy psixologik muammolariga oid bo'lgan bilimlarni tarkib toptirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
1. Yosh oila va uning xususiyatlari haqida tushuncha berish.	Yosh oila va uning xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'ladilar, o'zlashtiradilar.
2. Yosh oilada yuzaga keladigan muammolar haqida tasavvurni shakllantirish.	Yosh oilada yuzaga keladigan muammolar haqida tasavvurga ega bo'ladilar.
3. Yoshlarni nikoh oldi ko'rikdan o'tkazish va nikohning mustahkamligi mazmun-mohiyatini ochib berish.	Yoshlarni nikoh oldi ko'rikdan o'tkazish va nikohning mustahkamligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.
<b>O'qitish usullari va texnika</b>	Ma'ruza, "Klaster", "Aqliy hujum", "Nima uchun" texnologiyasi, "B\B\B" texnikasi, "T- jadval", «Qanday?» diagrammasi
<b>O'qitish shakli</b>	Ma'ruza, ommaviy, individual
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya
<b>O'qitish shart-sharoitlari</b>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya

**Mavzu: Yosh oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti – 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqqa)	1.1. Mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o'qish uchun adabiyotlarni bayon etadi (1-ilova).	Tinglaydilar, yozib oladilar.
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (2- ilova).	
	1.3.«B/BX/B» jadvalining “Bilaman” ustunini to'ldirishni so'raydi (3-ilova).	“B/BX/B” jadvalining “Bilaman” ustunini to'ldirishadilar.
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqqa)	2.1.«B/BX/B» jadvalining “Bilishni xohlayman” ustunini to'ldirish so'raladi (3- ilova). Aqliy hujum usulidan foydalangan holda yosh oila tushunchasi aniqlashtiriladi (4- ilova).	“B/BX/B” jadvalining “Bilishni xohlayman” ustunini to'ldirishadilar.
	2.2. Mavzu rejasining birinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi (5-ilova). “Nima uchun” texnologiyasidan foydalangan holda yosh oila muammolarini yozib chiqadi (6- ilova).	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim chizma va jadvallarni o'z daftarlariga qayd etadilar.
	2.3. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi (7-ilova). “T-jadval” texnologiyasidan foydalangan holda talabalarga topshiriqlar beradi (8-ilova).	
	2.4. Mavzu rejasining uchinchi punkti “Yoshlarni nikoh oldi ko'rikdan o'tkazish va nikohning mustahkamligi” bo'yicha ma'ruza qiladi (9-ilova). «Qanday?» diagrammasidan foydalangan holda talabalarga topshiriqlar beradi (10-ilova). Diqqatlarini jalb qiladi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.	
3.1.“B/BX/B” jadvalining “Bilib oldim” ustunini to'ldirish so'raladi (3-ilova). Shu orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	“B/BX/B” jadvalining “Bilib oldim” ustunini to'ldiradilar.	
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqqa)	3.2. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	O'z tasavvurlarini boyitadilar va to'ldiradilar.



**Mavzu: Yosh oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari****Reja:**

1. Yosh oila va uning xususiyatlari.
2. Yosh oilada yuzaga keladigan muammolar.
3. Yoshlarni nikoh oldi ko'rikdan o'tkazish va nikohning mustahkamligi.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Talabalarda yosh oilaning ijtimoiy-psixologik muammolariga oid bo'lgan bilimlarni tarkib toptirish.

**O'quv faoliyatining natijasi:** Talabalarga yosh oila va uning xususiyatlari haqida tushuncha beriladi.

**Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligi 0-5 ball	Jami ball

15-13 ball – «a'lo».

12-10 ball – «yaxshi».

9-6 ball – «qoniqarli».

**B/BX/B jadvali**

**B/BX/B jadvali** – Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim. Mazkur jadval mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Talabalarda tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar:

- Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

- «Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz?» va «Nimani bilishni xohlaysiz?» degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2-bo'limlarini to'ldiradilar.

- Ma'ruzani tinglaydilar.
- Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar

B/BX/B JADVALI		
Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

4-ilova

### “Aqliy hujum” metodi uchun topshiriq

Yosh oila – bu...

5-ilova

Yosh oila deb – er va xotinning ikkalasi ham 30 yoshdan oshmagan yoki oilaviy turmush qurish tajribasi 10 yildan oshmagan yoshlar oilasi nazarda tutiladi. Birinchi yondashuv, ya'ni, er va xotinning pasport yoshini inobatga olib, oilaga maqom berish to'g'riroq bo'lib, qachon turmush qurganligidan qat'iy nazar, albatta, shu muddat orasida hali yigit ham, qiz ham tom ma'noda katta mehnat stajiga ega bo'lmaydi va ko'p hollarda ayol-ona aynan shu davrda farzandli bo'lib, uy bekasi bo'lib o'tirib qolishi ehtimoli katta. Agar ikkinchi yondashuv bo'yicha yosh oilani oilada yashash muddatiga ko'ra tabaqalashtirilsa, unda u yoki bu jamiyatda nikoh yoshining o'rtacha ko'rsatgichi ortib yoki kamayib borishini nazarda tutish lozim. Chunki ayrim davlatda va ayrim milliy-madaniy muhitda yoshlarni juda erta turmush qurishi rag'batlantirilsa, boshqalarida, ayniqsa, oxirgi yillarda aksincha, yigit va qizlarning kasb-hunar orttirish bo'yicha professional malakaga erishishi asosiy qadriyat hisoblangan sharoitlarda 30 yoshdan oshgan odam endi oila qurgan yoki hali ham turmush qurmagan bo'lishi ham mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya kabi rivojlangan Evropa va Amerika davlatlarida, Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida (Yaponiya, Koreya kabi) nikoh yoshi yil sayin ortib, ayrim mamlakatlarda bu raqam 30 yoshdan ham o'tib ketmoqda. Juda erta turmush qurish qanchalik oila va uning barqarorligi bilan, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lsa,

kech turmush qurish ham qator salbiy asoratlar va moddiy-ma'naviy qiyinchiliklar bilan, eng muhimi, er va xotinning salomatligi holati, tug'ilajak zurriyodning sog'lom tug'ilishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Yosh oilani tavsiflaganda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

- *juda yosh oila* – nikohga kirgan vaqtdan toki 4 yilgacha;
- *yoshoila*–5 yildan 9 yilgacha;
- *o'rtta oilaviy hayot muddati* – 10 yildan 19 yilgacha;
- *katta oilaviy hayot muddati*– 20 yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi.

6-ilova


### *Mavzu yuzasidan topshiriq*

Quyidagi fikrni tahlil qilish orqali “Nima uchun?” sxemasini to'ldiring: *Yosh oilalarda shaxslararo munosabatlardagi muammolarning kelib chiqishiga er-xotinning kasbiy pozitsiyasi ham ta'sir etadi. Ayniqsa, texnik sohada faoliyat yuritayotgan shaxslarda ijtimoiy persepsiyaning sust darajada shakllanganligi muloqotdagi turli to'siqlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.*

“Nima uchun?” jadvalidan foydalangan holda yuqorida berilgan topshiriqning tub mohiyatini tahlil qilib bering:

### “Nima uchun?” jadvali

**Ushbu texnologiya orqali muammoning tub mohiyati ochib beriladi va o'quvchilarda muammo va uni keltirib chiqaruvchi omillar yuzasidan amaliy bilimlar shakllanadi.**



Yosh oila borasidagi eng muhim masalalardan biri – yoshlarning o‘zaro munosabatlari va ularning yangicha munosabatlar tizimiga ko‘nikishi masalasidir. Chunki romantik sevgi, bir-birini yoqtirish bosqichidan o‘tgan yoshlarning endi yangi oilaviy hayot tamoyillari asosida kundalik hayotni boshdan kechirishida muayyan qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiy. Yigit o‘z uyida, ota-onasi yaratib bergan sharoitda yashaydi. Moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarning eng og‘iri kelinchakning bo‘yniga tushadi. U boshdan kechiradigan muammolardan biri esa – yangi oila a‘zolari bilan muomalamaromlarini to‘g‘ri o‘rnatishdir. To‘g‘ri, to‘ydan keyin turkona, o‘zbekona urfodatga ko‘ra qizning onasi va uning yaqin qarindoshlari kelinchakni “yo‘qlaydi”, ya‘ni, pishir-kuydir qilib, qiz o‘z xonadonida suygan taomini pishirib, yangi kelin tushgan xonadonga dasturxon yuboriladi. Albatta, bu kabi azaliy urf-odatning asosida muhim sabablar yotgan bo‘lib, birinchisi, yangi muhitga tushib qolgan qiz bu yerdagi issiq-sovuqqa tez ko‘nikib ketolmasligi, taom tanovvul qilishda keskin o‘zgarish bo‘lmasligi uchun to ko‘nikkuncha, bir necha kun o‘z xonadonidan ovqat yuborish va shu orqali uni “yupatish” bo‘lsa, ikkinchi ma‘nosi – ota-ona qizini unutmaganligi, hanuz unga mehrlil munosabatda ekanliklarini izhor qilishdir. Bu kabi munosabatlarning saqlanishi qisman bizning hozirgi sharoitimizda ham o‘zini oqlaydi, lekin yo‘qlov bahonasida tog‘oralarda ovqat-oziqning hadeb kuyov uyiga jo‘natilishi, ortiqcha dabdabalarga yo‘l qo‘yilishida umuman mantiq yo‘q. Chunki hozir ko‘pchilik onalar oila yumushidan tashqari davlat va jamoat muassasalarida xizmat qiladilar. Ular uchun bunday tashvishlar ortiqcha, ikkinchidan, qizlar ilgarigiday juda erta turmush qurmaydigan va o‘qish, ish bahonasida turli taomlarni yeyishga yoshlikdan o‘rgangan sharoitda ularning oshqozonlari yangi xonadonda ham birday ishlayveradi. Ya‘ni, yosh oilaning mustahkam bo‘lishiga rahna soluvchi omillardan biri hisoblanmish ortiqcha ovragarchiliklar, dabdabali tushliklarning ikkinchi xonadonga yuborilishi bugungi taraqqiyot bosqichida biroz erish tuyulishi tabiiy.


O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, yosh oilaning tinchlik-totuvchilikda yashashiga halaqit berayotgan sabablardan biri – qaynonalar bilan

yangi kelinchakning tez kirishib, til topishib keta olmayotganligi. Bu ham oilaviy munosabatlar borasidagi muammolardir. Chunki ayniqsa, shahar sharoitida bitta yoki ikkitagina o'g'il o'stirgan ona ko'pincha yangicha munosabatlar tizimiga o'zi ko'nika olmaydi va kelinchakni ham tezroq ko'nikib ketishiga yordam berish choralarini bilmaydi. Ya'ni, qaynona bilan kelin o'rtasida o'ziga xos rashkka o'xshash munosabatlar paydo bo'ladiki, bu holat qaynonaning kelinga nisbatan adolatli, bag'rikeng inson sifatida ish tutishiga halaqit beradi. Ko'pincha shaharlarimizda sodir bo'layotgan nikoh ajrimlarining sabablari orasida aynan qaynona bilan kelin o'rtasidagi nizolarning qayd etilishi yuqoridagi fikrlarning dalilidir.

Ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil hal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg'un qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini o'z oilasida qo'llay bilish mahoratiga bevosita bog'liqdir. Lekin baribir har bir oila aynan yoshlik davrida muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar quyidagi holatlarga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi:

- *oilaviy hayotning bir maromda kechishini ta'minlash, ishlash, o'qish yoki boshqa masalalarni hal qilish uchun vaqtning yetishmasligi;*
- *vaqtini yaxshi o'tkazish, ko'ngilxushliklarning cheklanganligi;*
- *yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan toliqishi, asablarining charchashi;*
- *iqtisodiy qiyinchiliklar.*

## T – jadval



### T-jadvalni to'ldiring.

Yosh oiladagi munosabatlarning afzallik jihatlari	Yosh oilada yuzaga keladigan muammolar

### 9-ilova


Oila Kodeksining 17-moddasida yosh kelin-kuyovlar nikohgacha ixtiyoriy tarzda tibbiy ko'rikdan o'tishlari maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlangan. Bu modda kiritilishining mohiyati shundaki, imonli, insofli va yaxshi niyatli inson uchun oila qurish, uning mustahkam poydevorda bo'lishiga qayg'urish qanchalik muhim va majburiy bo'lsa, yoki ota-ona bo'lish mas'uliyati kuchli bo'lsa, o'zidan sog'lom zurriyot qoldirish, uni sog'-salomat katta qilib voyaga yetkazish, to'g'ri tarbiya berish shunchalik mas'uliyatli va majburiy ishdir.

Shuning uchun ham har bir yigit va qiz, yoki ularning ota-onalari yangi oila qurish ishini savob va mas'uliyatli deb anglasalar, nikohga kiruvchilarning pushti va nasli nuqtayi nazaridan sog'-salomatligiga ishonch hosil qilish shunchalik zurrudir. Tibbiy ko'rikdan o'tgan har ikki yosh eng avvalo o'z vijdoni oldida toza bo'lishi masalaning bir tomoni bo'lsa, hali oilani qurmay turib, uning salomatligi haqida qayg'urayotganligi ulardagi ana shu nikohday muqaddas narsaga bo'lgan jiddiy va mas'uliyatli munosabatining namoyon bo'lishidir. Ayniqsa, bugungi bozor munosabatlari sharoitida oila har bir a'zosining sog'lom bo'lishi, yangi tug'ilgan farzandning sog' va salomat katta bo'lishi qanchalik muhim iqtisodiy hamda ma'naviy masala ekanligini bugun hamma tushunib qoldi.

Jamiyatda sog'lom oilalar sonini oshirish maqsadida qabul qilingan qarorlardan biri bu – “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida”gi Nizomdir. Bu hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustda qabul qilgan 365 sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu Nizomga ko'ra, barcha fuqarolar nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishlari zarur. Bunda bo'lajak kelin-kuyovlar beshta asosiy xastalik – sil, teri-tanosil, giyohvandlik, OITS, ruhiy kasalliklar bo'yicha tekshiriladi. Sababi, bu beshta kasallik bevosita naslga ta'sir qiladi.

**Qanday? diagrammasi asosida “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra bo‘lajak kelin-kuyovlar qanday kasalliklar bo‘yicha tekshirilishini aniqlang.**

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va qanday savoli orqali muammo hal qilinadi





**Mavzu: Oilaviy nizolar va ularning turlari**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi modeli**

<i>Talabalar soni:</i> 50-60 nafar	<i>Mashg'ulotga ajratilgan vaqt:</i> 4 soat
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	<i>Ma'lumotli ma'ruza</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Oilaviy nizo turlari: er-xotin, qaynona-kelin, qaynona-kuyov, ovsinlar o'rtasidagi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolar.</li> <li>2. Konstruktiv (biriktiruvchi) va destruktiv (ajratuvchi) nizolar.</li> <li>3. Er-xotin nizolarining asosiy sabablari.</li> <li>4. Nizolarni hal qilishning asosiy variantlari.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarni nizo va uning turlari, nizolarni hal qilishning asosiy variantlari, oilaviy munosabatlarning buzilishi, ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlariga oid nazariy bilimlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
1) Oila psixologiyasida nizo, uning turlari, biriktiruvchi va ajratuvchi nizo, nizolar eskolyatsiyasi tushunchalarining mazmun-mohiyatini ochib berish.	1 Oilaviy nizo, biriktiruvchi va ajratuvchi nizo, nizolar eskolyatsiyasi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
2) Nizolarni hal qilishning asosiy variantlari, konstruktiv (biriktiruvchi) va destruktiv (ajratuvchi) nizolar, oilaviy munosabatlarning buzilishi, ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari haqida tushuncha beradi.	2.Nizolarni hal qilishning asosiy variantlari, konstruktiv (biriktiruvchi) va destruktiv (ajratuvchi) nizolar, oilaviy munosabatlarning buzilishi, ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy – psixologik va etnopsixologik xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
3) Nizo va ajralish bo'yicha olib borilgan tadqiqotishlar bilan tanishtirish, tahlil qilish.	3.Oilaviy nizo bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, "Rezyume", "Blits-so'rov", "Nima uchun" jadvali
<i>O'qitish shakli</i>	Ma'ruza, ommaviy, individual
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya

## Mavzu Oilaviy nizolar va ularning turlari Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti – 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqa)	1.1. Talabalarga besh minut vaqt ichida oilaviy nizolar va ularning turlari mavzusida erkin yozish topshirig'ini beradi. 1.2. Mavzusining rejasi, maqsad va kutilayotgan natijalarini bayon etadi. (1-ilova)	O'z daftarlariga erkin ravishda oilaning turlariga doir fikrlarini yozadilar. O'z fikrlarini boshqalar bilan o'rtoqlashadilar. Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqa)	2.1. "Oilaviy nizo va ularning turlari" mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etishadi. (2-ilova) 2.2. Taqdimot texnologiyasi yordamida asosiy nazariy ma'lumotlarni bayon etadi (3-4-ilovalar). 2.3. "Rezyume" texnologiyasi orqali talabalarni faollashtiradi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatadi, har bir o'quv biriligi bo'yicha xulosalar qiladi. (5-ilova)	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim chizma va jadvallarni o'z daftarlariga qayd etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni shakllantiradi. 3.2. "Blits so'rov" orqali talabalar-ning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi (6-ilova).	Tinglaydilar, fikrlaydilar. Fikr almashadilar

**Mavzu Oilaviy nizolar va ularning turlari**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti – 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqqa)	1.1. Mavzusining rejasi, maqsad va kutilayotgan natijalarini bayon etadi. (1-ilova)	Tinglashadilar, yozib boradilar.
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqqa)	2.1. "Oilaviy nizo va ularning turlari" mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi (2-ilova) 2.2. Taqdimot texnologiyasi yordamida asosiy nazariy ma'lumotlarni bayon etadi (7-8-ilova). 2.3. "Nima uchun?" texnologiyasi orqali talabalarni faollashtiradi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko'rsatadi, har bir o'quv birligi bo'yicha xulosalar qiladi. (9-ilova)	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim chizma va jadvallarni o'z daftarlariga qayd etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni shakllantiradi. 3.2. Talabalarning bilimlarini mustahkamlash uchun savollar bilan murojaat qiladi (10-ilova).	Tinglaydilar, fikrlaydilar. Fikr almashadilar.

**Mavzu: Oilaviy nizolar va ularning turlari**

**Reja:**



1. Oilaviy nizo turlari: er-xotin, qaynona-kelin, qaynona-kuyov, ovsinlar o'rtasidagi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolar.
2. Konstruktiv (biriktiruvchi) va destruktiv (ajratuvchi) nizolar.
3. Er – xotin nizolarining asosiy sabablari
4. Nizolarni hal qilishning asosiy variantlari.

***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** Talabalarni nizo va uning turlari, nizolarni hal qilishning asosiy variantlari, nizolar eskalatsiyasi oilaviy munosabatlarning buzilishi, ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy - psixologik va etnopsixologik xususiyatlarigi oid nazariy bilimlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.

***O'quv faoliyatining natijasi:*** Talabalarni nizo va uning turlari, nizolarni hal qilishning asosiy variantlari, nizolar eskalatsiyasi oilaviy munosabatlarning buzilishi, ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy - psixologik va etnopsixologik xususiyatlarigi oid nazariy bilimlar bilan tanishtirish va tasavvurlari tarkib topadi

***Mavzu vuzasidan tavanch so'zlar:*** Oilaviy nizolar, er-xotin nizolari, qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar, ovsinlar o'rtasidagi nizolar, oilaviy munosabatlar, biriktiruvchi nizolar, ajratuvchi nizolar.

**Oilaviy nizo turlari: er-xotin, qaynona-kelin, qaynona-kuyov, ovsinlar o'rtasidagi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolar.**



## Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar

Ota – ona va farzand dunyoqarashlari orasidagi mavjud farqni hisobga olinmasligi;

Yoshlarning bo'sh vaqtini mustaqil tashkil etishi, do'stlar tanlashdagi mustaqilligi, hissiyot sohasidagi mustaqilligi, modaga, bugungi kun talabiga mos kiyinishi, kasb tanlashdagi mustaqilligi, umr yo'ldoshi tanlashda

Ota-onalar ichkilikka ruju qo'yishi yoki ornomusni yig'ishtirib qo'yib, buzuvchilik qilishi;

Ba'zi bolalarni mehnat qilishga o'rgatilmaganligi va buning oqibatida engil-elpi hayot kechirishga o'tganib qolishi;

Ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qo'yishi va hokazo.

Ota-onalarning psixologik-pedagogik bilim saviyalari etarli darajada emasligi natijasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar.

## Qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar

1. Ba'zi qizlarda nikohgacha oilaviy hayotga, qaynonaga, qaynona-kelin munosabatlariga nisbatan salbiy tasavvur shakllangan bo'ladi.

2. Qaynona-kelinning dunyoqarashlari va uy-ro'zg'or tutishlari orasida kelishmovchilik paydo bo'ladi va *kekinlashadi*.

3. Ba'zi kelinlar kelinlik va onalik vazifalarni bajarishga tayyor bo'lmaydilar.

4. Ayrim hollarda qaynona-kelin bolalar tarbiyasi masalasida kelisha olmay qoladilar.

5. Ba'zan katta xonadonda ovsinlar qaynona iltifotini qozonish yo'lida bir-birilaridan rashk qilishlari asosida kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

6. Ba'zi hollarda qaynona **kelinning** yosh xususiyatlarini, qiziqishini, **orzu-havaslarini**, ishlashi yoki o'qishini hisobga olmaydi.

7. Ayrim kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyin bo'ladi, oqibatda qaynona-kelin orasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

**Konstruktiv (biriktiruvchi) va destruktiv (ajratuvchi) nizolar.****Psixologik adabiyotlarda  
nizolar shartli ravishda**

***Biriktiruvchi nizolarning*** yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar va ularning hal qilinishi ham erining, ham xotinning, butun oilaning manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Agar ular hal etilsa buning oqibatida oilaning umumiy manfaatlariga oid muammolar o'z yechimni topadi.

***Ajratuvchi nizolarning*** yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammo va uning yechimi er-xotinlardan birining manfaatiga qaratilgan bo'ladi. Bunday nizolarda bir tomon manfaatining hal etilishi ko'pincha, ikkinchi tomon manfaatining boy berilishi hisobiga amalga oshadi.

**«Rezyume» texnologiyasi**

**Texnologiyaning maqsadi:** o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taq-qoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.



### **Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

- o'qituvchi o'quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;
- o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning Yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarini tarqatadi;
- har bir guruh a'zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;
- kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;
- o'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;
- o'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

<b>Konstruktiv va destruktiv nizolarning tahlili</b>			
<b>Konstruktiv (biriktiruvchi) nizolarning psixologik tahlili</b>		<b>Destruktiv (ajratuvchi) nizolarning psixologik tahlili</b>	
<b>Afzalliklari.</b>	<b>Kamchiliklari</b>	<b>Afzalliklari.</b>	<b>Kamchiliklari</b>
<b>Xulosa:</b>			

**“Blits-so‘rov” savollari**

<i>№</i>	<i>Savol</i>	<i>Javob</i>
1.	Oilaviy nizolarning sabablarini sanab o‘ting/	
2.	Qaynona-kelin orasidagi nizolarning oila mustahkamligiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?	
3.	Qanday nizolar biriktiruvchi nizo deyiladi?	
4.	Qanday nizolar ajratuvchi nizo deyiladi?	
5.	Oilaviy nizolarning qanday turlarini bilasiz?	

## 7-ilova

**Er – xotin nizolarining asosiy sabablari**

Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o‘rtasidagi nizolardir. Xalqimizda bir gap bor: Oshsiz uy bo‘lishi mumkin, lekin nizosiz uy bo‘lmaydi. Faqat, nizoning nizodan farqi bor.

Ilk bolalikdanoq ko‘plab ertaklar eshitib, keyinchalik o‘zlari ham ularni turli kitoblardan o‘qib o‘sgan yoshlar o‘zlarining bo‘lajak oilaviy hayotlarini adekvat tasavvur eta olishlari mushkul. Chunki ertaklarda ham, kinofilmlarda ham qahramonlar bir-birlariga yetishgunlariga qadar ne ne mashaqqatlarni, zahmatlarni boshlardan kechirib, bu yo‘lda duch kelgan qora kuchlarni yengib, oxir-oqibatda visolga erishadilar, elu Yurtga «qirq kecha-Yu, qirq kunduzlab to‘y berib, murod maqsadlariga erishadilar». Deyarli barcha ertaklar, filmlar, ayniqsa bizning yoshlarimiz, qizlarimiz sevib tomosha qiladigan hind filmlari, aksariyat hollarda shu tariqa yakunlanadi. Bunga sizlar ham ko‘p martalab guvoh bo‘lgansizlar. Bundan tashqari aksariyat muvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yigit-qizlar o‘z ota-onasi oilasini, ularning turmush tarzini, bir-birlarga nisbatan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarini va qator shu kabilarni o‘zlarining bo‘lajak oilaviy hayotlari uchun ideal deb olishadi va ular ham oila qurishganlaridan so‘ng o‘g‘il bolalar xuddi o‘z otasidek va qizlarimiz o‘z onalaridek «ota», «ona», «er», «xotin» bo‘lishni orzu qiladilar. Chunki ular o‘z ota-onalari misolida, bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo‘luvchi, bir-birlari bilan nizolashib turuvchi er-xotinlarni ko‘rmaganlar. Mabodo bunday vaziyatlar va nizolar yuzaga kelib qolgudek bo‘lsa

ham, ularning ota-onalari bu holatni farzandlariga sezdirmaslikka harakat qiladilar. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari orqali namunaviy ahil, baxtli oilalar haqida berib boriladigan materiallarda ham aksariyat hollarda er-xotinlik munosabatlarini bir yoqlama, faqat yaxshi tomondan ko'rsatish an'analari mavjud. Bularning hammasi yoshlarda oilaviy hayot haqida bir yoqlama ijobiy tasavvurlarning shakllanishiga asos bo'ladi.

8-ilova

### **Nizolarni hal qilishning asosiy variantlari**

Psixologiyada nizolarni hal qilishning quyidagi variantlari keng qo'llaniladi:

**I. Raqobat usuli** — muloqot jarayonidagi bir tomonning ikkinchi tomon ustidan hukmronligini namoyon qilgan holda muloqot vaziyatini boshqarishga va butun jarayonni o'z qo'liga olishga harakat qilishini anglatadi. Odatda, katta yoshlilar va kichiklar o'rtasida, rahbar va unga tobe xodim munosabatlarida shunday manzarani kuzatishimiz mumkin. Bunda birinchi tomon o'z ustunligidan foydalangani holda ikkinchisining ustidan o'z erkini namoyon etadi. Tabiiyki, muloqotdan muloqotga tomon o'zini tobe deb his etayotgan odamda ichki noqulaylik va zo'riqishlar yig'ilib boradi. Bunday holatni psixologik til bilan ifodalanganda "yashirin nizo yig'ilib boradi" deyish mumkin. Bu esa o'zaro munosabatlarning keskinlashuvi va vaqti kelib kattaroq nizolarning paydo bo'lishiga olib keladi.

**II. Yon berish** — Yuqorida aytilgan holatga o'xshashroq, biroq undan ko'ra farqliroq holat hisoblanadi. Bunda shaxs muloqot jarayonida yon berishga majbur emas, lekin u yon berishga burchliman deb hisoblaydi. Bunda kishi o'zidan yoshi, mansabi, mavqei jihatdan katta kishi oldida o'z manfaat va istaklarini to'la ifoda etolmay o'zini tobe his etadi. Agar yuqoridagi **misolda tobelik** o'zga kishi tazyiqi ostida vujudga kelsa, yon berish pozitsiyasida shaxs o'z ixtiyori bilan shu xil munosabat tarafdori bo'ladi. Lekin ma'lum vaqt va natijalardan so'ng unda ichki qoniqmaslik hislari paydo bo'la boshlaydi. Bunday qoniqmaslik hislari ortib borishi natijasida esa yon berayotgan kishisiga nisbatan ichki norozilik kelib chiqadi. Yon berish


insonni passivlikka undaydi, uning ichki tashabbusini bo‘g‘ib qo‘yadi va erkinligini cheklaydi. Ko‘p jihatdan bu pozitsiya ham muqarrar nizolarga olib keladi.

**III. Passivlik** — biron masalani hal etish lozim bo‘lgan vaziyatlardan shaxsning o‘zini olib qochishi, turli bahonalar bilan qarorni orqaga surishini anglatadi. Ko‘pincha bu xil harakat nizoli vaziyatlarni hal etish jarayonida namoyon bo‘lishi mumkin. Aytish mumkinki, passivlik — nizodan qochish emas, balki masalani uzil-kesil hal etishdan qochishdir. Muammoni issig‘ida hal qilish kerak, uni hal qilishni cho‘zib yurish kerak emas. Chunki nizoni hal etishdan qochganimiz bilan nizo o‘z-o‘zidan hal bo‘lib qolmaydi. Bu o‘rinda o‘quvchida “Kelishmasdan qolgan yoki orasida nizo paydo bo‘lgan ikki kishi vaqt o‘tishi bilan bir-birini kechirib ketishi ham mumkin-ku, buni qanday tushunish mumkin?” kabi e‘tiroz tug‘ilishi ham mumkin. Bu e‘tiroz tashqi tomondan qaraganda tug‘ri, lekin psixologik jihatdan taxlil qilinsa, atrofdagilar nazarida ular bir-birini kechirgandek ko‘rinsalarda, aslida ma‘lum muddatgacha bir-birlariga nisbatan ichki norozilik holatida qolaveradilar.

**IV. Kompromiss** — ya‘ni kelishuvchanlik. Bahsli vaziyatlarda “Sen ham yutqizma, men ham yutqizmay” qabilida ish tutish, munozarali vaziyatdan ikkala tomon ham xafa bo‘lmay chiqib ketish imkoniyatini izlashdan iborat bo‘lgan holdir. Albatta, bu yuqorida sanab o‘tilgan munosabat tiplarining orasida eng samaralisi hisoblanadi. Lekin bu xil munosabat vaziyatni aynan hozir hal etishga, “keyin nima bo‘lsa bo‘lar” qabilida ish tutishga qaratilgan bo‘ladi. Bunda salbiy jihati shundaki, muammoni oxirigacha hal etilmasa, bora-bora baribir nizo kelib chiqishi mumkin.

**V. Hamkorlik** — bu holat muloqot jarayonida ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning o‘zaro manfaatlarini hisobga olgan holda muloqotda bo‘lish va muammoli vaziyatni oxirigacha hal etishga intilishdir. Har qanday muloqot jarayonida hamkorlikka erishish uchun erishiladigan oxirgi natija ikkala tomonning ham manfaatlarining qondirilishi va ularning qiziqishlariga mos kelishi kerak. Oilaviy munosabatlar, ishxonadagi vaziyatlar va turli hollardagi insoniy munosabatlarda bu usul juda ko‘p qo‘llaniladi.

**“Nima uchun?” texnologiyasidan foydalangan holda  
er-xotin o'rtasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlang**



**Talabalarni faollashtirish uchun savollar**

1. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning oila mustahkamligiga ta'siri
2. Oilaviy nizo turlari.
3. Er-xotin nizolarining xususiyatlari
4. Biriktiruvchi va ajratuvchi nizolar
5. Qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar va ularning Yuzaga kelish sabablari
6. Ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolar

**Mavzu: Oilaviy munosabatlarning buzilishi: nikoh ajrimlari**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi modeli**

<b>Talabalar soni:</b> 50-60 nafar	<b>Mashg'ulotga ajratilgan vaqt:</b> 2 soat
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	<b>Ma'lumotli ma'ruza</b>
<b>Ma'ruza rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Oilaviy munosabatlarning buzilishi: ajrimlar.</li> <li>2. Ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari.</li> <li>3. Ajralishga sabab bo'luvchi omillar.</li> <li>4. Ajralishlarning oqibatlari.</li> </ol>
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Talabalarni oilaviy munosabatlarning buzilishi: nikoh ajrimlariga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
1) Oilaviy munosabatlarning buzilishi: ajrimlar xususidagi nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish;	Oilaviy munosabatlarning buzilishi: ajrimlar haqidagi tasavvurlar shakllanadi;
2) Ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlarining o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirish;	Ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlarining o'ziga xos jihatlari haqida aniq tasavvurlarga ega bo'ladilar;
3) Ajralishga sabab bo'luvchi omillarning o'ziga xosligini tushuntirib beradi;	Ajralishga sabab bo'luvchi omillarning o'ziga xosligi haqidagi ma'lumotlarni bilib oladilar;
4) Ajralishlarning oqibatlarini sharhlab beradi;	Ajralishlarning oqibatlarini o'ziga xos jihatlari o'zlashtiradilar;
<b>O'qitish usullari va texnika</b>	Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, "Aqliy xujum" usuli, "Baliq skeleti", "B/BX/B" texnologiyalari
<b>O'qitish shakli</b>	Ma'ruza, ommaviy
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya
<b>O'qitish shart-sharoitlari</b>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	O'z-o'zini nazorat qilish.

**Mavzu: Oilaviy munosabatlarning buzilishi: nikoh ajrimlari  
Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti – 2 s	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (10 daqiqa)	<p>1.1. Talabalarga “Aqliy xujum” usuli orqali “Ajrimlarning shaxs ruhiyatiga ta'siri” xususida talabalarining tasavvurlari aniqlanadi (1-ilova).</p> <p>1.2. Imkon darajasida ko'proq talabalarining fikr-mulohazalarini eshitadi.</p> <p>1.3. Mavzuning nomlanishi, reja, maqsad va kutilayotgan natijalarini bayon etadi (2-ilova)</p>	<p>O'z bilimlariga tayangan holda o'qituvchining savoliga javob beradilar. Aksariyat talabalar tinglaydilar, fikrlaydilar.</p> <p>Mavzuning nomlanishi va rejalarni daftarlariga qayd etadilar.</p>
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (60 daqiqa)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini tarqatadi, uning rejasi bilan tanishishni taklif etadi (2-ilova).</p> <p>2.2. Taqdimot texnologiyasi yordamida mavzuga oid nazariy ma'lumotlarni bayon qiladi (3-6-ilovalar).</p> <p>2.3. Talabalarining bilimlarini mustahkamlash uchun “Baliq skeleti” texnologiyalari qo'llaniladi va har bir o'quv rejasi bo'yicha xulosalar qilinadi (7-ilova).</p>	<p>Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim chizma va jadvallarni o'z daftarlariga qayd etadilar.</p>
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni shakllantiradi.</p> <p>3.2. Talabalarining mavzu bo'yicha egallagan bilimlari aniqlash maqsadi “B/BX/B” texnologiyasidan foydalaniladi (8-ilova).</p>	<p>Tinglaydilar, fikrlaydilar.</p> <p>Fikr almashadilar</p>

### «Aqliy hujum» usuli

#### «Aqliy hujum» usulining asosiy qoidalari:

Olg'a surilgan fikr va g'oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;

taklif qilinayotgan fikr va g'oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo'lsa ham, uni baholashdan o'zingizni tiying!

tanqid qilmang – hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir.  
fikr bildirilayotganda bo'lmang!

maqsad – fikr va g'oyalar sonini ko'paytirish.

qanchalik ko'p fikr va g'oyalar bildirilsa shunchalik yaxshi. Yangi va bebaho fikr va g'oyaning paydo bo'lish ehtimoli paydo bo'ladi.

agar fikrlar qaytarilsa asabiylashmang va hayron bo'lmang.

xayollar «to'zg'ishiga» ijozat bering.

bu muammo faqatgina ma'lum usullar yordamidagina hal bo'lishi mumkin, deb o'ylamang.

«Fikrlar hujumi»ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga qat'iyon riyoya qilinishi shart.

berilgan savolga qisqacha (1-2 so'zdan iborat) javob beriladi.

#### “Aqliy xujum” usuli uchun topshiriq:

“Ajrimlarning bola shaxsi shakllanishiga ta'siri”.

2-ilova

**Mavzu: Oilaviy munosabatlarning buzilishi: nikoh ajrimlari**

#### **Reja:**

1. Oilaviy munosabatlarning buzilishi: ajrimlar.
2. Ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari.
3. Ajralishga sabab bo'luvchi omillar.
4. Ajralishlarning oqibatlari.

**O'quv mashg'ulotining maqsad:** Talabalarni oilaviy munosabatlarning buzilishi: nikoh ajrimlariga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.

**O'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar:** Talabalarni oilaviy munosabatlarning buzilishi: nikoh ajrimlariga oid nazariy ma'lumotlarga ega bo'ladilar.



### **Oilaviy munosabatlarning buzilishi: ajrimlar.**

Ayrim sabablarga ko'ra ba'zi oilalarda nizolar kelib chiqadi va uning oqibati sifatida nikoh barbod bo'ladi. Olimlar nikohning barbod bo'lishini o'rganib, uning sabablari turlicha bo'lishi mumkinligi to'g'risida o'z nazariy qarashlarini bayon etganlar. Masalan, ayrim psixologlar ajrimlarni "turtki" kontsepsiyasi orqali tushuntirishga urinadilar. Ya'ni, yaxshi tinch-totuv yashayotgan oilada birdan shunday holat yuz beradiki, masalan, xiyonat, o'lim, xastalik, rashk va shunga o'xshash voqealar turki bo'ldi-yu, oila ustuni qulaydi. Aslida hayotda qo'qqisdan shunday bir silkinish yoki turtki bilan oila birdan buzilib ketishi kam uchraydi.

Yana bir holat olimlar fikricha, "orqaga ketish" deb nomlanadi. Bu shunday holatki, unga ko'ra, er va xotinni yaxshi, iliq munosabatlar bog'lab turgan, lekin aynan muhabbat birdan sovib, er-xotin bir-birini ko'rsa g'ashi keladigan, gaplari yoqmaydigan, nizokash bo'lib qoladi. Bunday voqealar hayotda tez-tez uchraydi. Sababi – birdan yongan olov, ya'ni, muhabbat, ma'lum vaqt o'tgach o'chishi, so'nib qolishi mumkin.

Shu kabi holatlar va undan boshqa sabablar tufayli oila ajrimlarining sodir bo'lishi barcha zamonlar va davrlarda ham kuzatilgan. Faqat nikohning barbod bo'lishi shakllari va sabablarida har bir davrda o'ziga xos asoslar bo'lgan deyish mumkin. Masalan, Sharq mamlakatlarida qadimdan nikohning barbod bo'lishi eng kam uchraydi, deb hisoblab kelingan. Chunki oila institutining poydevori mustahkam bo'lishiga ajdodlarimiz qayg'urganlar. Yetti pushtini surishtirish, sovchilik instituti orqali bir-biriga mos keladigan yoshlarning taqdirini bog'lash, hattoki, uzoq qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar, ya'ni, oldindan bir-birlarini bilgan odamlarning o'zaro kelishuvi, mehr va muhabbat rishtalari orqali oila qurish o'zbekchilikka xos odatlar sifatida qadrlangan va ta'kidlab o'tilgan nikoh motivlarining barchasida oqilona fikr yuritish, yoshlar va ular ota-onalarining "yetti o'lchab bir kesishi" oilaning mustahkam bo'lishi uchun zamin hisoblangan.

Psixologik adabiyotlarda ajrimlarning tabiati, bu jarayonga oid qonuniyatlar ilmiy nuqtayi nazardan beriladi. Masalan, *S.Kraxotvil* ajrim jarayonining quyidagi bosqichlarini ajratadi:

*Bosh ko'tarish bosqichi:* xo'rlangan va norozi ayol o'z faolligini oshirib, ajrim sodir bo'lmasligining oldini olish uchun muayyan sa'y-harakatlarga kirishadi. Lekin barcha ishlarni xavotirlik va hayajon bilan amalga oshirgani sababli, ko'p xatolarga yo'l qo'yadi va noma'qul ishlar ham qilib qo'yishi mumkin;

*Tushkunlikka tushish bosqichi:* ajralishni xohlamagan tomon vaziyatni boshqara olmaganligini tan olib, tushkunlik, depressiya holatiga tushadi, va endi o'zini ham ayblay boshlaydi;

*Bo'yinga olish bosqichi:* ajralishni xohlamagan tomon endi mavjud holat bilan kelishib, bunday nikohning bo'lganidan bo'lmagani ma'qulligi fikriga keladi.

4-ilova

### **Ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari.**

Eski manbalarda nikoh ajrimiga sabab bo'lgan omillar sifatida avvalo, er yoki xotinda to'ydan keyin aniqlangan nasliy xastaliklar, ko'p holatlarda erkak kishining, ayrim holatlarda ayolning boshqa inson bilan "til" topishib ketishi, boobro' va mansabdor shaxsning kelinchakni yoqtirib qolishi va zo'rlik bilan eski oilani buzishga majbur qilishlar, farzandsizlik, ayolning bepushtligi sabab erkakning xotinni taloq qilishi, iqtisodiy nochor yosh oilaning o'z ro'zg'orini yurita olmaganligidan ayolning boshqa odamga turmushga chiqishga majbur bo'lib qolishi kabi sabablar qayd etilgan. Muhimi shundaki,

nikohning barbod bo'lishidagi tashabbus asosan erkak kishining qo'lida bo'lgan. Agar u xohlasagina nikoh barbod bo'lgan. Agar mabodo ayol tashabbus ko'rsatsa, u qattiq jazolangan, jamoatchilik uni qoralagan, hattoki, tosh bo'ron qilinganligi to'g'risida qadimgi tarixdan, eski kinofilmlardan ma'lum.

Qadimgi Xitoyda nikoh ajrimiga olib keladigan sabablarga erning ota-onasi ra'yiga qaramaslik, ularga kelinning gap qaytarishi, betga choparlik, bepushtlik, mahmadonalik, bedavo xastalik, rashk kabilar kirgan. Lekin yuqoridagi holatlar bo'lsa-yu, ayol erining ota-onasiga aza tutayotgan bo'lsa yoki u chin yetim bo'lsa, eri uni baribir uydan haydab yubora olmagan.

Qadimgi Gretsiyada esa nikoh ajrimini sodir etish ancha yengil bo'lgan. Er guvohlar oldida xotiniga u bilan ortiq yashay olmasligini, nikohi buzilganligini aytgan, ayol barcha sep-suriqlarini yig'ishtirib, o'z ota-onasining oilasiga qaytib ketavergan. Sarpo suriqlar, ayolga tegishli barcha narsalarning unga berilishi majbur hisoblangan, hattoki, ajrimning sababi ayolning xiyonati bo'lgan taqdirda ham mol-mulk, ziynatlar ayolga berilavergan. Lekin ayol eri bilan yashashni xohlamay qolgan holatlarda uning ajrim olishi mushkulroq bo'lgan, bunday paytlarda xotin shahar xokimiga yozma ravishda rasmiy murojaat qilishi, va ular qaror qabul qilishi lozim bo'lgan. Bunday hollarda kim aybdor deb topilishidan qat'iy nazar, bolalar otasi bilan qoldirilgan.

Qadimgi Hindistonda esa nikoh oddiygina fuqarolar ittifoqi emas, ilohiy ittifoq sifatida qaralib, nikoh rishtalarining buzilishi nihoyatda g'ayritabiiy holat deb baholangan. Nikohning buzilishi faqat er tashabbusi va ayolning katta gunohi tufayli ro'y berishi mumkin bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan ikki mingliklardan qolgan manbalarda ko'rsatilishicha, "sakkiz yil mobaynida bola tug'magan ayol boshqasiga almashtirilishi mumkin, o'lik bola tuqqan – o'ninchi yili, faqat qiz bolalarni tug'adigani – o'n birinchi yili, urushqoq, beadabi esa o'sha zahoti er tomonidan qo'yib yuborilishi mumkin" bo'lgan.

Agar ajralish «ozodlik» deb hisoblanadigan bo'lsa, unda hozirgi zamon nikoh-oila qonunchiligiga ko'ra bu «ozodlik» «kimga qanchaga tushadi?» Shahar joylarda istiqomat qiladigan Evropa xalqlariga mansub bo'lgan yosh oilalarda bu quyidagi formula tarzida bo'lishi mumkin.

Avollar uchun:

Ajralish = ozodlik + bola + aliment ± uy + yolg' iz onalarga beriladigan imtiyozlar + yangi oila qurish muammosi.

Erkaklar uchun:


Ajralish = ozodlik + bola + aliment + uy + yangi oila qurish imkoniyati.

Agar ajralishlarning ayol va erkakka ko'rsatadigan asosiy ta'sirlarini sanaydigan bo'lsak, ular quyidagicha bo'ladi:

Jamiat uchun - Noto'liq oilalar soni ko'payadi, oilalararo yoki qarindoshlararo adovat yuzaga keladi, bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan nafrati paydo bo'ladi, fohishabozlik ortadi, teri-tanosil kasalliklarning ortishi kuzatiladi, shaxsning ijtimio-ky faolligi susayadi

Erkak uchun - yolg'izlik hissining ortishi, gijyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, turli kasalliklar.

Avollar uchun - yolg'izlikni his qilishning ortishi, qayta oila qurish imkoniyatining cheklanganligi, nevrozlar, stresslar, turli xastaliklar, o'z joniga qasd qilish.

**Ajralishga sabab bo'luvchi omillar**

**Rossiyada o'tkazilgan oxirgi tadqiqotlarda  
nikoh ajrimlarining asosiy sabablari sifatida  
quyidagilar qayd etilmoqda.**

*moddiy, maishiy muammolar*

*er yoki xotinning ichkilikka ruju  
qo'yishi*

*yoshlar uchun oilaviy qadriyatlarining  
pastlab ketishi*

*er-xotin xiyonati*

*psixologik mos kelmaslik*


*oilaviy hayotning mazmunsizligi*

*boshqa birovni sevib qolish*


*farzandlarning yo'qligi*

*boshqa sabablar*

## Ajralishlarning oqibatlari



### “Baliq skeleti” chizmasi



### “B/BX/B” jadvalini to‘ldiring.

<i>№</i>	<i>Mavzular</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni xohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>
1.	Ajrimlarning bola ruhiyatiga ta’siri			
2.	Ajrimlarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy omillar			
3.	Nikoh ajrimlarining etnopsixologik jihatlari			
4.	Ajrimlarning oqibatlari			
5.	Nikoh ajrimlarini keltirib chiqaruvchi psixologik omillar			



**Mavzu: Ota-ona – bola munosabatlari psixologiyasi**  
**Ma'lumotli ma'ruzaning ta'lim texnologiyasi modeli**

<b>Talabalar soni:</b> 50-60 nafar	<b>Mashg'ulotga ajratilgan vaqt:</b> 4 soat
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	<b>Ma'lumotli ma'ruza</b>
<b>Ma'ruza rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. "Ota-ona–bola" munosabatlari tizimi.</li> <li>2. Reproduktiv xulq psixologiyasi. Perinatal psixologiya.</li> <li>3. Onalik va otalik psixologiyasi.</li> <li>4. Ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari.</li> <li>5. Bola tomonidan ota-onalikning idrok etilish</li> </ol>
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Talabalarni ota-ona – bola munosabatlari psixologiyasiga oid nazariy bilimlar bilan tanishtirish va tasavvurlarini kengaytirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
1) "Ota-ona–bola" munosabatlari tizimining mazmun-mohiyatini ochib berish;	1. "Ota-ona–bola" munosabatlari tizimining o'zlashtiriladi.
2) Reproduktiv xulq psixologiyasi, perinatal psixologiya haqida tushuncha beradi.	2. Reproduktiv xulq psixologiyasi, perinatal psixologiya haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
3) Onalik va otalik psixologiyasi, ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari, bola tomonidan ota-onalikning idrok etilishining psixologik xususiyatlari bilan tanishtirish, tahlil qilish.	3. Onalik va otalik psixologiyasi, ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari, bola tomonidan ota-onalikning idrok etilishining psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
<b>O'qitish usullari va texnika</b>	Ma'ruza, "Qanday" diagrammasi, "Insert", "Fakt", "B/BX/B" texnologiyalari
<b>O'qitish shakli</b>	Ma'ruza, ommaviy, individual
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya
<b>O'qitish shart-sharoitlari</b>	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya

**Mavzu: Ota-ona – bola munosabatlari psixologiyasi**  
<p style="text-align: center;"><b>Pedagogik vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Oila psixologiyasida ota-ona va bola munosabatlari muammosi yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash.</li> <li>• Ota-ona va bola munosabatlarining tarixiy davrlari haqida qisqacha izoh berish.</li> <li>• Bola tarbiyasida ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllarining ta'sirini sharhlash.</li> <li>• Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi muhimligiga e'tibor qaratish.</li> <li>• Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari sharhlash.</li> <li>• Mavzu bo'yicha mustaqil fikrlashni shakllantirish va talabalar bilimini kengaytirish.</li> </ul>	<p style="text-align: center;"><b>O'quv faoliyati natijalari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Oila psixologiyasida ota-ona va bola munosabatlari muammosi yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarini namoyish etadi.</li> <li>2. Ota-ona va bola munosabatlarining tarixiy davrlari haqida tushuntirib beradi.</li> <li>3. Bola tarbiyasida ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllarining ta'siri masalasida o'z mulohazalarini bildiradi, faktlarni isbotlab beradi.</li> <li>4. Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari mazmunini ochib beradi</li> <li>5. Oilada ota-ona va bola muammolarini o'rganishda psixologdan talab etiladigan mas'uliyatni tahlil qiladi va o'z mulohazasini bildiradi.</li> </ol>
<b>Ta'lim berish usullari</b>	Munozara, suhbat, Blits -so'rov, "Klaster", "Tushunchalar tahlili", "Muammo" texnologiyalari, "Insert" jadvali
<b>Ta'lim berish shakllari</b>	Ommaviy, guruhlarda ishlash
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, ekspert topshiriqlari
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<b>Nazorat va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob

**Mavzu: Ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari**  
**Seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1-ilova). Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova).	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda Blits-so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi (3-ilova).	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (60 daqiqqa)	2.1. Talabalarni 4ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarda hamkorlik asosida ishlash usuli qoidalari bilan tanishtiradi (4-ilova). Har bir guruh mavzu rejasi asosida taqdimot tayyorlashini aytadi. 2.2. O'quv kursi mavzulari bo'yicha tayyorlangan ekspert varaqalarini tarqatadi (1-ilova). 2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Taqdimot materiallari mazmunan va mantiqan to'liq yoritilishini kuzatadi. 2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Guruhlarda sardorlar taqdimotini tashkillashtiradi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruhsardorini to'xtatadi, savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Bunda «Insert» jadvali qo'llaniladi (5-ilova). Faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlar bo'linadilar.  Topshiriqlar bo'yicha ishlaydilar. Faol qatnashadilar, taqdimot uchun materiallar tayyorlaydilar. Guruhdan sardor tanlashadi, uning taqdimotida hamkorlik qiladilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqqa)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2. Mavzu maqsadiga erishishda talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.	Tinglaydilar.

**1-topshiriq.**  
**“Klaster” texnologiyasi asosida ota-onalikning eng muhim sifatlarini tahlil qilib bering.**



**2-topshiriq.**  
**Blits-so‘rov**  
**Ota-onalarning o‘z farzandlarini tarbiyalash uslublarini farqlang va tahlil qiling.**

<b>TUR</b>	<b>TA'RIF</b>	<b>AFZALLIGI</b>	<b>KAMCHILIGI</b>

**3-topshiriq.**  
**Muammo texnologiyasi**  
**Quyidagi vaziyatlarni tahlil qiling:**

<b>Muammoli vaziyat</b>	<b>Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari</b>	<b>Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari</b>
Ota-ona va farzand o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklar		

2-ilova

**Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari**

<b>Mezonlar</b>	<b>Maks Ball</b>	<b>Guruh natijalarini baholash</b>				
		<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
Axborotning to'liqligi	3 b.					
Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi	1 b.					
Guruhning faolligi	1 b.					
Ballarning maksimal summasi, jami	5 b.					

3-ilova

**Tushunchalar tahlili texnologiyasidan foydalangan holda  
jadvalni to'ldiring.**

**Olimlar emotsional bog'langanlikning to'rt xil shaklini ajratishgan, ularni quyidagi jadval asosida izohlang:**

<b>Tushuncha</b>	<b>Ta'rif</b>
1. Ishonchli bog'liqlik	
2. Chetlashuvchi bog'liqlik	
3. Ambivalent bog'liqlik	
4. Tartibsiz bog'liqlik	

**Guruhlarda ishlash qoidasi**

Sheringizni diqqat bilan tinglang.

Guruh ishlarida o‘zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashing.

Agar yordam kerak bo‘lsa, albatta murojaat qiling.

Agar sizdan yordam so‘rashsa, albatta yordam bering.

Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog‘imiz lozim:

- Boshqalarga o‘rgatish orqali o‘zimiz o‘rganamiz.
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho‘kib ketamiz.

**INSERT jadvalidan foydalanish**

(V) – bilaman; (+) – men uchun yangi ma’lumot; (-) – men bilgan ma’lumotga zid; (?) – noaniq ma’lumot.

t/r	Mavzuga oid ma’lumotlar	V	-	+	?
1	<i>Giperproteksiya</i> – ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e‘tiborli bo‘lib, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e‘tiborni ayamasliklarida namoyon bo‘ladi.				
2	Odatda bola asrab olishga ahd qilgan er-xotinlar bolani kutadilar, kutishlar motivatsiyasi qanchalik kuchli bo‘lsa, bolani erkalatib yuborish yoki unga nisbatan talablar qo‘yish shunchalik katta bo‘ladi.				
3	Sibling maqomining bola va kattalar munosabatiga ta’siri qanday?				
4	G.T. Xomentauskas tomonidan fanga kiritilgan “Siblinglar raqobati” hodisasi nima?				


**Mavzu: Oilaviy konsultatsiya**  
**Seminar mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi**  
**Ta'lim berish texnologiyasining modeli**

<b>Mashg'ulot vaqti-2</b>	<b>Talabalar soni: 20 – 30 gacha</b>
<b>Mashg'ulot shakli</b>	<b>Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar</b>
<b>Seminar mashg'uloti rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Konsultatsiya haqida umumiy tushuncha.</li> <li>2. Oilaviy konsultatsiyaning maqsadi.</li> <li>3. Oilaviy konsultatsiyaning asosiy tamoyillari va qoidalari.</li> <li>4. Oilaviy konsultatsiyada foydalaniladigan metod va usullar.</li> <li>5. Oila konsultatsiyasiga zamonaviy yondashuv.</li> </ol>
<p><b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Konsultatsiya haqida tushuncha, oilaviy konsultatsiya maqsadi va asosiy tamoyillari mavzusi yuzasidan olingan bilim, ko'nikma va malakalarini <b>mustahkamlash</b>; S.Minuxinning "Strukturali oila terapiyasi", individual va guruhli psixologik konsultatsiya borasidagi ko'nikmalarini shakllantirish haqidagi fikrlarni tahlil qilish orqali talabalarda <b>kasbiy mas'uliyatni tarbiyalash</b>; seminarda talabalarning <b>faolligini ta'minlash</b>.</p>	
<p><b>Pedagogik vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Oilaviy konsultatsiya mavzusi yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash.</li> <li>• Oilaviy konsultatsiya va oilaviy terapiyaning bir-biridan farqi haqida qisqacha izoh berish.</li> <li>• Oilaviy konsultatsiyaning asosiy tamoyillari va qoidalarining ta'sirini sharhlash.</li> <li>• Oila muammolarini ijtimoiy-psixologik diagnostika qilish va unda foydalaniladigan metod va usullarga e'tibor qaratish.</li> <li>• Oilada individual va guruhli psixologik konsultatsiyaning o'ziga xos jihatlari sharhlash.</li> <li>• 6. Mavzu bo'yicha mustaqil fikrlashni shakllantirish va talabalar bilimini kengaytirish.</li> </ul>	<p><b>O'quv faoliyati natijalari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Oilaviy konsultatsiya mavzusi yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarini namoyish etadi.</li> <li>2. Oilaviy konsultatsiya va oilaviy terapiyaning bir-biridan farqini tushuntirib beradi.</li> <li>3. Oilaviy konsultatsiyaning asosiy tamoyillari va qoidalarining ta'siri masalasida o'z mulohazalarini bildiradi, faktlarni isbotlab beradi.</li> <li>4. Oila muammolarini ijtimoiy-psixologik diagnostika qilish va unda foydalaniladigan metod va usullarini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari mazmunini ochib beradi</li> <li>5. Oilada individual va guruhli psixologik konsultatsiyaning o'ziga xos jihatlari tahlil qiladi va o'z mulohazasini bildiradi.</li> <li>6. Mavzu bo'yicha mustaqil fikr va dunyoqarashga ega bo'ladilar hamda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiradilar.</li> </ol>
<b>Ta'lim berish usullari</b>	Munozara, suhbat, Blits-so'rov, "Klaster", "Moychechak", "Fidbek" texnologiyalari
<b>Ta'lim berish shakllari</b>	Ommaviy, guruhlarda ishlash
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, ekspert topshiriqlari
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<b>Nazorat va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob

**Mavzu: Oilaviy konsultatsiya**  
**Seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi**


Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1-ilova). Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova).	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqat)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda Blits-so'rov o'tkazish uchun "Blits-so'rov" qo'llab, talabalar bilimlarini faollashtiradi (3-ilova).	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (60 daqiqat)	2.1. Talabalarni 5ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarda hamkorlik asosida ishlash usuli qoidalari bilan tanishtiradi (4-ilova). Har bir guruh mavzu rejasi asosida taqdimot tayyorlashini aytadi. 2.2. O'quv kursi mavzulari bo'yicha tayyorlangan ekspert varaqalarini tarqatadi. Har bir guruh berilgan topshiriqlarni "Klaster", "Moychechak", "Fidbek" texnologiyalari orqali taqdim qilib berishlari lozimligi aytiladi (1-ilova). 2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Taqdimot materiallari mazmunan va mantiqan to'liq yoritilishini kuzatadi. 2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Guruhlarda sardorlar taqdimotini tashkillashtiradi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatadi, savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlar bo'linadilar.  Topshiriqlar bo'yicha ishlaydilar. Faol qatnashadilar, taqdimot uchun materiallar tayyorlaydilar. Guruhdan sardor tanlashadi, uning taqdimotida hamkorlik qiladilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqat)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2. Mavzu maqsadiga erishishda talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.	Tinglaydilar.

**1-topshiriq.**  
**“Moychechak” usuli**  
**“Moychechak” usuli orqali oilaviy konsultatsiyaning**  
**psixologik asoslari**  
**va nazariy yondashuvlarni tahlil qilib bering.**  
**1-guruh uchun topshiriq.**





## 2-guruh uchun topshiriq.



### 2-topshiriq.

**«Rezyume» texnologiyasi asosida oilaviy  
konsultatsiya turlarini tahlil qiling**

**Texnologiyaning maqsadi:** o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

### **Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

- o'qituvchi o'quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

- o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarini tarqatadi;

- har bir guruh a'zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoning yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;

- kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;

- o'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;

- o'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoq berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

<b>Oilaviy konsultatsiya metodlari</b>							
Oila rasmi		Oilaviy xoreografiya		Oilaviy ritual		Oila ekokartasi	
Afzal.	Kamchil.	Afzal.	Kamchil.	Afzal.	Kamchil.	Afzal.	Kamchil.
Xulosa:							

**3-topshiriq**  
**FIDBEK (QARSHI TA'SIR)**

<b>Seminarda biz nimalarga o'rgandik? O'tilgan mavzular bo'yicha nimalarni bilib oldim?</b>		
t/r	Faoliyatga undovchi fikrlar	Shaxsiy fikrlarim
1.	Oilaviy psixokonsultatsiyaning qanday turlarini bilasiz?	
2.	Oilaviy psixokonsultant kasbiga nisbatan qanday yangi qarashlar paydo bo'ldi?	
3.	Sizningcha konsultativ suhbatning yutug'i nimada?	
4.	Oila ekokartasini qanday amalga oshirishim mumkin?	
5.	Seminar davomida qanday ijodiy ko'tarinkilik, his-tuyg'ular paydo bo'ldi?	
6.	Seminardan so'ng konsultantlik faoliyatimda qanday o'zgarishlar qilishim mumkin?	

2-ilova

***Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari***

Mezonlar	Maks. ball	Guruh natijalarini baholash				
		1	2	3	4	5
Axborotning to'liqligi	3 b.					
Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi	1 b.					
Guruhning faolligi	1 b.					
Ballarning maksimal summasi, jami	5 b.					

3-ilova

**Blits-so'rov**

Tushunchalar	Ta'rif
Konsultatsiya	
Oilaviy konsultatsiya	
Oila terapiyasi	
Psixoterapiya	
Strukturalizm	

### ***Guruhlarda ishlash qoidasi***

Sherigingizni diqqat bilan tinglang.

Guruh ishlarida o‘zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashing.

Agar yordam kerak bo‘lsa, albatta murojaat qiling.

Agar sizdan yordam so‘rashsa, albatta yordam bering.

Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog‘imiz lozim:

- Boshqalarga o‘rgatish orqali o‘zimiz o‘rganamiz.
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho‘kib ketamiz.

## XULOSA

Ma'lumki, har bir davrda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda ta'limning mazmuni va unga qo'yiladigan talablar tubdan o'zgarib boradi, o'z navbatida bozor iqtisodiyoti hayotimizda tobora keng ko'lam olayotgan sharoitda kelajakda o'sib kelayotgan yosh kadrlar ko'p qirrali bilimga ega, chuqur mushohada va mulohaza asosida qarorlar qabul qilishga qodir yuqori malakali mutaxassis bo'lishi shart. Negaki, mavjud resurslardan maqbul darajada foylanish hamda kamolotga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish uchun bo'lajak kadrlar, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni, oilaning jamiyatda tutgan o'rnini tahlil etishni, oila va oilaviy hayotning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, muammoli vaziyatlar yuzasidan xulosalar chiqarib, ularning to'g'ri va asosli ekanini isbotlab bera olishi kerak. Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi uni jahon standartlariga muvofiqlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdan va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Xususan, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurligi alohida ko'rsatib o'tilgan.

Ta'lim muassasalari o'quvchilari orasida shunday qobiliyat egalarini saralab olish, iqtisodiy oliy o'quv yurtlariga tavsiyalar berish psixologik-pedagogik tashxis ishlarini olib borayotgan amaliyotchi pedagog-psixologlarning zimmasidagi mas'uliyatli vazifalardan biridir. Zero, pedagoglik kasbiga layoqatli bo'lgano'quvchilar iqtisodiy oliy ta'lim dargohida ham, kelajakda kasbiy faoliyati davomida ham qiynalishmaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish ta'lim samaradorligiga erishishning **birinchi** shartidir. Buning uchun esa yoshlar orasida pedagogik faoliyatga layoqatli va qiziqishi bor yigit-qizlarni to'g'ri tanlay bilish kerak. Shundagina ta'lim-tarbiyada erishajak yutuqlarimiz ko'rsatkichi samarali bo'ladi. Buning uchun pedagogik jarayonlarni zamonaviy texnologiyalar asosiga qurish, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarni ijtimoiy

faollikka yo'naltirishda qiziqarli, faol, noan'anaviy, yangi innovatsion usullardan foydalangan holda ularga kasbiy ta'lim asoslarini o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Demak, o'qitiladigan fan ta'sirchanligini oshirishda o'quvchilarni guruhlarga bo'lish bilan birga, mavzuni o'rganishda o'quvchiga muammoni ko'rsata bilish, shu muammoni yortishda esa ma'lumotlarni verbal va vizual qabul qilish hamda ifodalash muhim ekan. Bu o'z navbatida fanni o'qitishda kutiladigan kafolatli natijaga olib boradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to‘plami. – T.: «Sharq».2001.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonuni. – T.: «Sharq», 2001.
3. Karimov I. A. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. –T.: «O‘zbekiston», 1995.
4. Oila manfaatlarini ta’minlash borasida 1998-yilda amalga oshiriladigan tadbirlar. Davlat dasturi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-yanvar 45-son qarori.
5. Ayupov T. X., Ahmadjonov X. I., Imomqoriyeva Sh. R. Samarali ta’lim berish usullari. –T.: 2003.
6. Ahrorova Z. O‘qitishning yangicha usullari. // Ta’lim va tarbiya, 2003-yil 3-4-sonlari.
7. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: 2006.
8. Андреева Т.В. Семейная психология. М. 2004 г. - 244 с.
9. Бадмаев М. Методика преподавания психологии. М. “Владос”, 2001.

10. Голод С. И. Стабильность семьи: социологические и демографические аспекты. - М.: Наука, 1984. - 135 с.

11. Gulboyev T. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish. - Navoiy, 2001.

12. Гулямов С.С., Мибаратова Л.И., Абдуллаева А.Х. Внедрение новых информационных технологий дистанционного обучения в образовательных учреждениях Узбекистана. - Т.: 2002.

13. Davletshin M. G., Shoumarov G'.B. Zamonaviy o'zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari /O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari qisqacha bayoni. - Toshkent, 1993. - B. 3-7./

14. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. Москва. "Гайдарики" 2005. - 310 с.

15. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. O'quv qo'llanma.-T., 2006.-142b.

16. Психология семейных отношений: конспект лекций сост.С.А. Векилова. - М.: AST; - СПб.: Sova, 2005. - 127 с.

17. Сатир В.М. Как строить себя и свою семью. М.: Педагогика –ПРЕСС, 1992. -191 с.

18. Oila psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Shoumarov G'.B. tahriri ostida. T.: Sharq, 2000. - 272 b.



## OILAVIY MUNOSABATLARNI O'RGANISHGA OID PSIXODIAGNOSTIK TESTLAR

### «Nikohga ma'naviy tayyorlik» testi

- 2-qo'shilaman - 4 ball  
 3-biror narsa deyish qiyin - 3 ball  
 4-qo'shilmayman - 2 ball  
 5- mutlaqo qo'shilmayman - 1 ball

T.r	Tasdiqlar	1	2	3	4	5
1.	Agar odamlar oila-oila bo'lib yashashni bas qilsalar, unda hayot nihoyatda jozibasiz bo'lib qolgan bo'lar edi.					
2.	Oilaviy hayotning yaxshi bo'lishida maxsus bo'limlardan ko'ra omadning ahamiyati kattadir.					
3.	Erta boshlangan jinsiy hayot nafaqat sog'liqqa, balki bo'lajak oilaning muvaffaqiyatiga ham katta ziyon keltiradi					
4.	Agar turmush o'rtog'i bilan yumshoq munosabatda bo'linsa, uning holati e'tiborga olinaversa, unga achinilsa, hamdardlik qilinaversa, o'z ko'zlaganingga erishish juda qiyin bo'ladi.					
5.	Topshirilgan ishni oxirigacha bajarish-bu men uchun burchdir.					
6.	Ota-onalar va ularning voyaga yetgan farzandlari bilan bo'ladigan nizolar bartaraf qilinib bo'linmaydigan muqarrar nizolardir.					
7.	Men o'z tengdoshlarim bilan bo'ladigan nizolarni bartaraf eta olaman.					
8.	Xotin (er) oldida o'z odatlaridan qaytishi yoki ularni o'zgartirishi kerak emas, chunki bu tobelikka olib keladi.					
9.	Har kim o'z baxtini yaratuvchisidir, degan ibora oilaviy hayotga butunlay taalluqlidir.					

10.	Men, oila ko'proq hayotdan qoniqqanlikka olib kelishiga ishonaman.				
11.	Agar odamda ezgulik, xushmuomalalik bor bo'lsa, demak oilaviy hayot uchun juda ko'p narsa bordir.				
12.	Agar oilaviy hayot xuddi orzu qilinganidek yaxshi tashkil qilinmayotgan bo'lsa, unda hech qanday chora uning buzilishining oldini ola olmaydi, shuning uchun yaxshisi ajrashgan ma'qul.				
13.	Men doimo ota-onamni tushunishga harakat qilaman, agar ularning talablari haqligiga ishonsam, ularga bo'ysunaman.				
14.	Kishining ayrim beparvoligi va yengiltakligi hatto oilaviy hayotni mustahkamlaydi ham.				
15.	Kimki o'zini oilaviy hayotga to'la tayyorman desa, tezda o'zini qayta baholashga to'g'ri keladi. Chunki doimo nimanidir o'rganish va o'zida nimanidir o'zgartirishga to'g'ri keladigan narsalar mavjud.				
16.	Qarama-qarshi jins vakillari bilan muloqotda bo'lar ekan, odamga o'zini atay xushmuomala va sertakalluf tutishning zarurati yo'q.				

### ***Natijalarni qayta ishlash***

Tasdiqlarning yuqoridagi ro'yxatdagi tartib raqamlari bo'yicha toq va juft rahamli tasdiqlar bo'yicha olingan ballar yig'indilari alohida-alohida hisoblab chiqariladi.

S1 - toq nomerlar yig'indisi

S2 - juft nomerlar yig'indisi.

Natija quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi;

$$K = \frac{32 + C1 - C2}{64} \cdot 100\%$$

Agar K 50%dan kam bo'lsa-oilaviy hayotga ma'naviy tayyorgarlik past darajada bo'ladi.

Agar K 50%dan ko'p bo'lsa-oilaviy hayotga ma'naviy tayyorgarlik o'rtacha va yuqori darajada bo'ladi.

### **Ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabati test-so'rovnoma (A.Ya.Varga, V.V.Stolin)**

Ushbu test-so'rovnoma ota-onalarning o'z farzandlariga bo'lgan munosabatlarini aniqlash uchun qo'llaniladigan psixodagnostik vosita.

Ota-onalarning o'z farzandlariga bo'lgan munosabati kattalarning bolalarga nisbatan turli-tuman hissiyot va hulq-atvorlari tizimi sifatida tushuniladi. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda ota-onalarning o'z farzandlariga munosabati bu bolalarga nisbatan o'rnatiladigan pedagogik ijtimoiy ustanovka bo'lib o'z ichiga ratsionallik emotsional va hulq-atvor komponentlarini oladi. Bu komponentlar u yoki bu darajada ushbu metodikaning asosini tashkil qiluvchi so'rovnoma yordamida baholanadi. R.S.Nemov tomonidan ayrim terminlarni qo'llash olingan natijalarni qayta ishlash va tavsiflashga bir oz o'zgartirishlar kiritilgan.

Metodika 61 ta savoldan tuzilgan bo'lib ular ota-onalar munosabatini ifodalovchi 5 ta shkaladan iborat.

1. Bolani qabul qilish-rad qilish bu shkala bolaga nisbatan umumiy emotsional ijobiy qabul qilish yoki emotsional salbiy rad qilish munosabatni ifodalaydi.

2. Kooperatsiya bu shkala kattalarning bola bilan hamkorlik qilishga intilishini uning ishlariga qiziqishi va ularda ishtirok etishini ifodalaydi.

3. Simbioz bu shkala savollari bola bilan birlashishga intilishi yoki uni saqlab qolishga harakat qilishini aniqlashga yo'naltirilgan. Bu bola bilan kattalarning o'ziga xos aloqasi.

4. Kontrol nazorat bu shkala kattalar bola hulq atvorini qanday nazorat qilishlari bola bilan bo'layotgan munosabatlari demokratik yoki avtoritar uslubda qurilishini xarakterlaydi.

5. Bolaning omadsizliklariga munosabat bu so'nggi shkala kattalar bolaning qobiliyatlari ustunliklari va kamchiliklariga muvaffaqiyat va omadsizliklariga qanday munosabatda ekanligini ko'rsatadi.

### So‘rovnoma

“Ha” yoki “Yo‘q” javobi berilishi so‘raladi.

1. Men doimo o‘z farzandimga hayrihohlik bildiraman.
2. Farzandim nima to‘g‘risida o‘ylayotganligini bilishni o‘z burchim deb hisoblayman
3. Men o‘z farzandimni hurmat qilaman
4. Fikrimcha farzandimning hulq-atvori normadan sezilarli darajada og‘ishgan
5. Agar real hayotiy muammolar bolaga jarohat yetkazsa bu muammolardan bolani chetqoq ushlab zarur
6. Men farzandimga nisbatan moyilligimni his qilaman
7. Yaxshi ota-onalar bolani hayot qiyinchiliklaridan himoya qiladilar
8. Farzandim ko‘pincha men uchun yoqimsiz
9. Men doimo o‘z farzandimga yordam berishga harakat qilaman
10. Shunday holatlar bo‘ladiki bolani tahqirlash xo‘rlash unga ko‘proq foyda keltiradi
11. Men farzandimga nisbatan achinishni his qilaman
12. Farzandim hayotda hech narsaga erisha olmaydi
13. Menimcha bolalar farzandimni ermak mayna qiladilar
14. Mening farzandim ko‘pincha shunday xatti-harakatlarni amalga oshiradiki, ular nafratlanishdan boshqa hech narsaga arzimaydi.
15. O‘zining yoshiga nisbatan farzandim biroz orqada
16. Farzandim meni xafa qilish uchun ataylab o‘zini yomon tutadi
17. Farzandim barcha yomon narsalarni o‘ziga singdirib oladi.
18. Har qancha urinsam ham farzandimni yaxshi hulq-atvoriga o‘rgatish juda mushkul
19. Bolani qattiq chegara qolipda saqlasagina undan insofli odam o‘sib ulg‘ayishi mumkin
20. Farzandimning o‘rtoqlari uyimizga kelishini yoqtiraman
21. Farzandim ishlarida ishtirok etaman
22. Farzandimga barcha yomon qiliqlar yopishib qoladi
23. Farzandim hayotda muvaffaqiyatga erishmaydi
24. Tanishlar davrasida bolalar to‘g‘risida gap ketsa menda ozgina uyaliq paydo bo‘ladi chunki bolam men hohlagandek aqlli va qobiliyatli emas

25. Men o'z farzandimga achinaman
26. Agar o'z farzandimni tengdoshlari bilan solishtirsam ular hulq-atvorlari va fikr-mulohazalariga ko'ra kattaroqdek bo'lib tuyuladilar
27. Bo'sh vaqtimni bajonidil farzandim bilan o'tkazaman
28. Ko'pincha men farzandim katta bo'lib qolayotganligiga achinaman va uning bolaligini mehr-muhabbat bilan eslayman
29. Men ko'pincha farzandimga bo'lgan munosabatlarda adovat dushmanlikni his qilaman
30. Men hayotda erisha olmagan narsalarga farzandim erishishi haqida orzu qilaman
31. Ota-onalar faqat farzandlaridan talab qilib qolmay balki o'zlari ularga moslashishlari zarur
32. Farzandimning barcha iltimoslarini bajarishga harakat qilaman
33. Oilaviy qaror chiqarishda bola fikrini ham inobatga olish kerak
34. Farzandim hayotiga juda qiziqaman
35. Farzandim bilan nizo kelib chiqsa ko'pincha u o'zicha haq ekanligini tan olishim mumkin
36. Ota-onalar ham yanglishishlari mumkinligini bolalar juda erta biladilar
37. Men doimo farzandim fikrlari bilan hisoblashaman
38. Farzandimga nisbatan do'stlik munosabatlarini his qilaman
39. Farzandim injiqliklarini asosiy sababi-egoizm qaysarlik va dangasalik
40. Agar ta'tilni bola bilan o'tkazilsa zarur normal darajada dam olish mumkin emas
41. Eng muhimi farzandim uchun tinch va tashvishsiz bolalik qolgan barcha narsalar ahamyatsiz
42. Ba'zida menga farzandim hech qanday yaxshi narsaga noqobildek bo'lib tuyuladi.
43. Farzandimni qiziqishlari bilan bo'lishishaman
44. Farzandim har qanday odamning ham jahlini chiqara olishi mumkin
45. Farzandimning tashvishlarini tushuna olaman
46. Farzandim ko'pincha mening jahlimni chiqaradi.
47. Bolani tarbiyalash faqat asabning buzilishi

48. Bolalikdagi qat'iy kuchli intizom harkatlarni rivojlantiradi.
49. Farzandimga ishonmayman
50. Qattiqo'llik bilan amalga oshirilgan tarbiya uchun bolalar ke-  
yinchalik minnatdor bo'ladilar
51. Ba'zida menga farzandimni yoqtirmagandek bo'lib tuyuladi.
52. Farzandimda ustunliklarga qaraganda kamchiliklar yo'q
53. Farzandimning qiziqishlari bilan o'rtoqlashaman
54. Meni farzandim hech narsani mustaqil ravishda bajara olmaydi  
yoki bunga harakat qilsa ham uddasidan chiqa olmaydi.
55. Farzandim hayotga moslashgan holda ulg'ayadi
56. Farzandim qanday bo'lsa shunday yoqadi
57. Farzandim sog'lig'ini zimdan kuzatib boraman
58. Ko'pincha men farzandimdan faxrlanaman
59. Bola ota-onasidan hech narsani sir saqlamaslik kerak
60. Men farzandim qobiliyatlari to'g'risida yuqori fikrda emasman  
va buni undan yashirmayman
61. Bola ota-onasiga yoqadigan o'rtoqlari bila do'stlashsa maqsadga  
muvofiq bo'ladi.

### *Natijalarni qayta ishlash va baholash.*

1. “Bolani qabul qilish-rad etish” 3, 5, 6, 8, 10, 12, 14, 15, 16, 18, 20, 23, 24, 26, 27, 29, 37, 38, 39, 40, 42, 43, 44, 45, 46, 47, 49, 51, 52, 53, 55, 56, 60.
2. «Kooperatsiya»: 21, 25, 31, 33, 34, 35, 36
3. «Simbioz»: 1, 4, 7, 28, 32, 41, 58.
4. «Nazorat»: 2, 19, 30, 48, 50, 57, 59.
5. «Bolaning muvaffaqiyatsizliklariga munosabat»: 9, 11, 13, 17, 22, 54, 61.

«Ha» javob uchun -1ball “Yo'q” -0 ball

I. “Bolani qabul qilish – rad etish” shkalasi bo'yicha yuqori ballar ya'ni 24 dan 33 gacha bo'lgan ballar bolaga nisbatan yorqin namoyon bo'luvchi ijobiy munosabat mavjudligini ko'rsatadi. Bu holda kattalar bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qiladi, uning

individualligini tan oladi va hurmat qiladi, uning qiziqishlarini rejalari qo'llab-quvvatlaydi, bola bilan ko'p vaqtni o'tkazadi va bu haqida afsus chekmaydi.

Ushbu shkala bo'yicha past ballar -0 dan 8 gacha kattalar bolaga nisbatan faqat salbiy his-tuyg'ularni g'azab ta'sirlanish achinish hatto ba'zida nafratni boshdan kechirishlarini bildiradi. Bunda kattalar bolani omadsiz deb hisoblaydilar. Uning kelajagiga ishonmaydilar, qobiliyatlarini past baholaydilar. Bunday moyillikka ega bo'lganlar yaxshi pedagog bo'la olmaydilar.

**II. "Kooperatsiya"** shkalasi bo'yicha yuqori ballar 7-8 ball kattalar bolani qiziqtiradigan narsalariga katta qiziqish bilan munosabatda bo'lishlarini bola qobiliyatlarini yuqori baholashlarini bolaning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirishlari bola bilan tanglik munosabatlarida bo'lishlari belgisi hisoblanadi.

Ushbu shkala bo'yicha past ballar 1-2 ball kattalar bola bilan munosabatda o'zlarini ularga qarma-qarshi qo'yishlarini va ular yaxshi pedagog roliga da'vogar bo'lolmasligini bildiradi.

**III-shkala Simbioz** shkalasi bo'yicha yuqori ballar 6-7 ballarga ega bo'lgan tekshiriluvchilarning o'zlari bilan bola o'rtasida psixologik distansiya o'rnatmasliklari bola iloji boricha yaqin bo'lishga intilishlari bolaning asosan ongli ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishlari ularda bo'lish mumkin bo'lgan turli ko'ngilsizliklarning oldini olishga urinishlari to'g'ri xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi.

Ushbu shkala bo'yicha past ballar 1-2 aksincha kattalar o'zlari bilan farzandlari o'rtasida keskin psixologik distansiya o'rnatishlari ular to'g'risida unchalik g'amxo'rlik qilmaslik belgisi bo'lib hisoblanadi. Bunday tekshiriluvchilardan yaxshi o'qituvchi va tarbiyachilar chiqmaydi.

**IV. "Nazorat"** shkalasi bo'yicha to'plangan yuqori ballar -6-7ballar bunday tekshiriluvchilar bolaga nisbatan kuchli avtoritar munosabatda ekanliklaridan ularni so'zsiz o'zlariga itoat etishlarini talab qilishlari qat'iy intizomni saqlashlaridan darak beradi. Kattalar bunda bolaga o'z hohish irodasini singdirishga harakat qiladilar. Ular har doim ham bola uchun tarbiyachi sifatida foyda keltiravermaydi.

Ushbu shkala bo'yicha past ballar 1-2ball aksincha kattalar to-

monidan bolaning xatti-harakatlarini nazorat qilish butunlay mavjud emasligini bildiradi. Bu esa bolaning ta'lim-tarbiyasi uchun yaxshi bo'lmisligi mumkin. Ushbu shkala bo'yicha kattalarning pedagogik qobiliyatlarini baholashning eng yaxshi varianti-o'rtacha ballar -3 dan 5 gacha bo'lgan ballar.

V. **“Bolaning omadsizliklariga munosabat”** shkalasi bo'yicha yuqori ballar 7-8 ball kattalarda bolani “omadsiz” deb hisoblashlari belgisi mavjud. Kattalar uchun bolaning qiziqishlari havaslari fikr va tuyg'ulari jiddiy emasdek tuyuladi. Bunday tekshiriluvchilar yaxshi o'qituvchi va tarbiyachilar bo'la olmaydilar.

Ushbu shkala bo'yicha past ballar 1-2 ball –aksincha bolaning omadsizligini kattalar tasodifiy deb hisoblashlari va unga ishonishlaridan dalolat beradi. Bunday kattalar yaxshi o'qituvchi va tarbiyachi bo'lishlari mumkin.

### «Aytinch, siz baxtlimisiz?»

Sharq oilasida erkakning o'rni alohida, yani xonadon hokimi sanaladi. Ammo bundan foydalanib o'z huzur-halovatini ko'zlovchi erkaklar ham yo'q emas. Siz o'zingizni oilada qanday tutasiz? Oilangizning huzur-halovati sizni qiziqtiradimi? Mana bu savollarga etibor bering.

	Savollar	Ha	Bazan	Yo'q
1.	O'z hayotingizni qaytadan ko'rib chiqsangiz, umringizni boshqatdan boshlashni xohlarmidingiz?	10	5	2
2.	Xotiningizni qiyinishida didi past deb o'ylaysizmi?	8	2	4
3.	Jahlingiz chiqsa oila azolaringizga baqirib hovurdan chiqasizmi?	7	3	5
4.	Kechqurunlari har doim uyda bo'lasizmi?	2	5	10
5.	Xotiningiz yoqtirgan narsalar (gul, kiyim, atir) dan ogohmisiz?	4	9	10
6.	Bo'yoqlik yillaringizni tez-tez xotirlab turasizmi?	12	5	6



7.	Xotiningiz bilan sayl (kino, teatr) ga tez-tez chiqib turasizmi?	7	5	4
8.	O'z xotiningizni boshqa ayollar bilan taqqoslash sizga yoqadimi?	9	2	1
9.	Mehmonga xotiningiz bilan birga borishni istaysizmi?	8	2	3

Endi to'plagan ballaringizni hisoblab ko'ring. Agar siz 69 va undan ko'p ball olgan bo'lsangiz, Siz o'z oilangizda unchalik baxtli emassiz. Buning ko'p sabablari sizning xulqingiz bilan bog'liq. Endigi vazifa: oila azolaringizga, ayniqsa xotiningizga diqqat etiboringizni kuchaytiring, uni shaxs sifatida qadrlang, shunda siz ham izzat ko'rasiz. Balkim xotiningizga bo'lgan sovuq muomalangiz xotiningizning sizga bo'lgan beparvoligidir. U holda xotiningiz bilan jiddiy gaplashib oling. Bir-biringizni tushunishga harakat qiling. Jiddiy suhbatning kechi bo'lmaydi.

Agar siz 40-68 ball to'plagan bo'lsangiz, siz o'z oilangizdan rozisiz. Oiladagi shart-sharoit sizni qoniqtiradi. Shunga qaramasdan ba'zan yoshlik xotiralari xayolingizni olib qochadi, ammo bu xayolparast ekanligingizdan dalolat va buning oilaga dahli yo'q. Oilangizdagi halovat sizga yetadi.

Agar siz 33 dan kam ball to'plasangiz, bazida xotiningiz bilan xarxasha qilib turasiz. Oilada nizolar bo'lmaydi, axir siz baxtlisiz.

### **Test «Oila qurishga tayyormisiz?»**

Ushbu test qizlarga mo'ljallangan. Siz bu savollarni diqqat bilan o'qib chiqib, ularga berilgan javoblardan o'zingizga ma'qulini tanlang va o'z javoblaringizni quyida keltirilgan kalit yordamida baholab chiqing.

1. Turmush qurganingizdan keyin o'z kasbingizni saqlab qolasizmi?
  - a) I-farzand tug'ilgach, ishga qaytaman;
  - b) bunga astoydil harakat qilaman;
  - v) yo'q, mening ishim qoniqtirmaydi.

2. Farzand ko'rishni xohlaysizmi?

a) eng kami 2 ta

b) yo'q

v) xo'jayinim xohlagani uchun

3. Davralarda turmush o'rtog'ingiz boshqa ayol bilan qiziqayotganini sezib qolsangiz nima qilardingiz?

a) boshqa kishiga yoqishga harakat qilaman:

b) janjal chiqaraman:

v) bu qilg'i meni ajablantiradi, lekin men sezdirmaslikka harakat qilaman.

4. Siz rashkchimisiz?

a) ha:

b) unchalik emas:

v) o'z turmush o'rtog'imga ishonaman deb o'ylayman.

5. Janjallashib qolganda kim past keladi?

a) men

b) u

v) bir marta u, bir marta men

6. Siz shirin taomlar pishirishni yaxshi bilasizmi?

a) bunday bo'lish uchun o'qib olish kerak:

b) faqat bir necha taomlarnigiman.

v) pishirishni juda-juda sevaman.

7. Bo'lajak turmush o'rtog'ingizdan yashiradigan sirlaringiz bormi?

a) yo'q

b) ba'zan

v) ba'zi bir narsalar borki, men ular haqida aytishga uyalaman.

8. Sizning turmush o'rtog'ingiz futbol ishqibozi bo'lsa-chi?

a) bu qiziqishini yo'qotishga harakat qilaman;

b) u tomoshaga ketganida men o'z sevgan mashg'ulotim bilan shug'ullanaman;

v) o'zim ham ishqiboz bo'lib olaman.

9. Ota-onangiz nikohi qanday?

a) chidasa bo'ladigan

b) a'lo darajada

v) ajrashishgan.

10. Sizningcha turmush o'rtog'ingiz ishga sho'ng'ib ketishi mumkinmi?

- a) ha
- b) uning ishlari bilan qiziqmayman
- v) mansab hayotda unchalik kerak emas.

11. «Moda» degan tushunchaga sizlarda har xil qarashlar bo'lsa, siz nima qilgan bo'lar edingiz?

- a) yon berar edim;
- b) rozi bo'lar edim;
- v) qarashlarini o'zgartirishga harakat qilar edim.

12. «Sinash nikohlari»ga munosabatingiz qanday?

- a) rozi bo'lmas edim;
- b) bir-birlarini yanada yaqinroq o'rganish deb tushunaman;
- v) bu haqda biron nima deya olmayman.

13. Sizningcha ayol kishi turmush qurishdan oldin boshqa erkaklar bilan uchrashib yurgan bo'lsa, yaxshimi yomonmi?

- a) menimcha bu kerak
- b) yo'q
- v) vaziyatga qarab

14. Eringiz boshqa ayol bilan uchrashayotganini bilib (sezib) qolsangiz, kechirar edingizmi?

- a) ha
- b) yo'q
- v) vaziyatga qarab.

#### Test kaliti;

Savol javob	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
A	2	3	2	1	2	1	3	1	2	1	3	3	2	2
B	3	1	1	2	1	2	2	3	3	2	2	1	1	1
V	1	2	3	3	3	3	1	2	1	3	1	2	3	3

#### ***Endi ballarni hisoblab chiqing.***

14-23 ball - balkim vaqt o'tishi bilan Siz hayotga bo'lgan nuqtai-nazaringizni, dunyoqarashingizni o'zgartirarsiz. Hozircha sizlarning oralaringizda nizolar bo'lib turadi, chunki Siz o'zingizning bo'lajak

turmush o'rtog'ingizga o'rgana olmaysiz. Asosan sabr-toqatli bo'ling, kelgusida o'z turmush o'rtog'ingizga berishga odatlanishga harakat qiling.

24-32 ball - siz uchun turmushga chiqish biroz ertaroqdir. Bu borada bir oz yetilishingiz lozim. Balki bu boradagi, ya'ni o'zingizning turmushga tayyorligingiz borasidagi ikkilanishingiz bejiz emas. Umuman nikoh har doim ham ajralish emas. Siz turmush o'rtog'ingizni tushunasiz, balki hayotda Sizga hayotiy tajriba, o'z kuchingizga ishonch yetishmayotgandir. Agar o'z xatti-harakatlaringizni nazorat qilib borsangiz, Sizdan yaxshi turmush o'rtoq chiqishiga imkoniyatingiz bor. Ko'proq o'qing, bu bilimlar ko'proq Sizga kuch qo'shadi, o'zingizni kasb-xunarga yo'naltiring - bu Sizning mustaqil bo'lishingizga yordam beradi.

33-47 ball - Sizga «ha» degan odam baxtlidir. Sizning nikohingizda qora bulutlar paydo bo'lmaydi. (Sizning ishtirokingizda, ya'ni siz tufayli emas, albatta). Lekin bu Sizning o'z qiziqishlaringizdan voz kechishingizni anglatmaydi. Siz juda aqlli, farosatli odamsiz. Bu fazilatlaringiz turmush o'rtog'ingizning shaxsiy qiziqishlariga yordam beradi. Shuning bilan birgalikda Siz o'z mustaqilligingizga erishasiz.

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>Ma’ruza mashg’uloti mavzulari bo’yicha ta’lim texnologiyalari.....</b>	<b>6</b>
«Oila psixologiyasi» fan sifatida.....	6
Sharq mutafakkirlarining oila va oilaviy hayot xususida qarashlari.....	23
Insoniyat tarixida oila va nikoh institutining rivojlanishi tarixi.....	31
Zamonaviy oilaning o’ziga xosligi, turlari va vazifalari.....	39
Nikoh oldi omillari va nikohga yetuklik xususiyatlari.....	52
Oilaviy munosabatlar psixologiyasi.....	63
Yosh oilalarning ijtimoiy va psixologik muammolari.....	87
Oilaviy nizolar va ularning turlari.....	97
Oilaviy munosabatlarning buzilishi: nikoh ajrimlari.....	110
Ota-ona – bola munosabatlari psixologiyasi.....	121
Oilaviy konsultatsiya.....	136
O‘zbekistonda oila siyosatining shakllanishi.....	144
<b>Seminar mashg’uloti mavzulari bo’yicha ta’lim texnologiyalari.....</b>	<b>154</b>

«Oila psixologiyasi» fan sifatida.....	154
Sharq mutafakkirlarining oila xususida qarashlari.....	160
Insoniyat tarixida oila va nikoh institutining rivojlanishi tarixi.....	165
Zamonaviy oilaning o‘ziga xosligi, turlari va vazifalari.....	171
Nikoh oldi omillari va nikohga yetuklik xususiyatlari.....	176
Oilaviy munosabatlar psixologiyasi.....	187
Yosh oilalarning ijtimoiy va psixologik muammolari.....	198
Oilaviy nizolar va ularning turlari.....	204
Oilaviy munosabatlarning buzilishi: nikoh ajrimlari.....	214
Ota-ona – bola munosabatlari psixologiyasi.....	219
Ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllari.....	225
Oilaviy konsultatsiya.....	230
<b>Xulosa.....</b>	<b>237</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	<b>239</b>
<b>Oilaviy munosabatlarni o‘rganishga oid psixodiagnostik testlar.....</b>	<b>241</b>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**D. Abdullaeva, R. Yorqulov,  
N. Atabaeva**

**OILA PSIXOLOGIYASI**

**D. Abdullaeva, R. Yorqulov,  
N. Atabaeva**

**OILA  
PSIXOLOGIYASI**

«Tafakkur Bo‘stoni»  
Toshkent – 2015

**Muharrir**     *Z. Mirzahakimova*  
**Musahhah**    *A. Xo‘jabekov*  
**Sahifalovchi**    *U. Vaxidov*  
**Dizayner**        *D. O‘rinova*

Litsenziya AI № 190, 10.05.2011y  
Bosishga 2015 yil 5 oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>, Ofset qog‘ozi.  
Times New Roman garniturasida. Shartli bosma tabog‘i. 16,0. Nashr tabog‘i 16,3.  
Shartnoma № 31/29. Adadi 800 nusxa. Buyurtma № 35/29.

«Tafakkur Bo‘stoni» nashriyoti. Toshkent sh., Yunusobod, 9-mavze, 13-uy  
Telefon: (+99893) 589-05-78. E-mail: tafakkur0880@mail.ru

«Tafakkur Bo‘stoni» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent sh., Chilonzor ko‘chasi, 1 uy.